2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 222 (1821), 2026-yil 27-oktabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

MILLIY KINO – O‘ZLIK, MILLIY G‘URUR VA MILLAT TAFAKKURI KO‘ZGUSI

Prezidentimizning kinoijodkorlar bilan tarixiy uchrashuvdagi strategik tashabbuslari sharhi





Kino xalqlarni dunyoga tanitadigan, o‘rni kelganda tan oldiradigan katta ma’naviy kuch! Ayni paytda u xalqlarga o‘zligini anglatib, yoshlar tafakkurini milliy g‘urur ila shakllantiradigan mafkuraviy qalqondir!

O‘zining sharafli tarixiga ega “O‘zbekfilm” mana shunday vazifalarni imkon qadar bajarib keldi. O‘zbek kinosi darg‘alari sobiq tuzumning zarrabin bilan har bir so‘z va lavhadan siyosiy xato izlovchilarni “chalg‘itib”, ming bir azob va mashaqqatlar ila katta maktab yaratdi. Ana shu nazoratdan igna ko‘zidek bo‘sh joy topib, xalqimiz xarakterini ochib beradigan, ma’naviyatimizga xizmat qiladigan asarlar yaratildi. Jumladan, “Mahallada duv-duv gap”, “O‘tgan kunlar”, “Shum bola”, “Chinor ostidagi duel”, “Suyunchi” kabi filmlar xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi. Mustaqillik yillarida esa “Abdullajon”, “Otamdan qolgan dalalar”, “Dilxiroj”, “Vatan”, “O‘tov” singari asar ekran yuzini ko‘rdi. Ushbu filmlarni olish jarayonidagi iqtisodiy qiyinchiliklarni esa soha xodimlari unutgani yo‘q.

Keyingi yillarda o‘zbek kinosida ham tub yangilanishlar bo‘ldi. Jumladan, kinostudiya to‘liq rekonstruksiya qilindi. Sohani qo‘llab-quvvatlashga doir ikkita farmon va sakkizta qaror qabul qilindi. Quyidagi raqamlarning o‘ziyoq bajarilgan ishlar ko‘lamini aniq ko‘rsatib beradi. Xususan, filmlar olish uchun davlat byudjetidan 2016-yilda 10 milliard so‘m ajratilgan. Joriy yilda bu ko‘rsatkich 218 milliard so‘mni tashkil etdi!

Muhimi, sohaga o‘nlab xususiy kinostudiyalar kirib keldi. Ana shu jarayonda milliy kadrlarning yangi avlodi kamol topdi. Mamlakatimiz yetakchisining tashabbusi bilan tariximizni tanitishga xizmat qiladigan “Islomxo‘ja”, “Ibrat”, “Avloniy”, “Abdulla Qodiriy”, “Qo‘qon shamoli”, “Muqimiy”, “Ilhaq”, “O‘zbek qizi”, “Bahodir Yalangto‘sh” kabi filmlar yaratildi. Yana bir quvonchli holat, yaqinda “Oltin globus” xalqaro kino mukofoti doirasida Markaziy Osiyo va Kavkaz kinoijodkorlarini taqdirlash marosimi ilk bor Toshkentda o‘tkazildi. Unda san’atkor Gulchehra Jamilova “Meridian” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ha, keyingi yillarda sohada yutuqlar ko‘zga tashlana boshladi.

Hayot harakatdir degan haqiqatni ham unutmaslik zarur. Ya’ni doim olg‘a intilish yangi eshiklarni ochish, imkoniyatlarni kengaytirish, muhimi, davr talabiga moslashib borish zaruratini o‘rtaga qo‘yadi. Prezidentmiz 26-oktabr kuni kino sohasiga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish va “O‘zbekfilm” milliy kino brendini yaratish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi. Shuningdek, mamlakatimiz rahbari soha vakillari bilan muloqot qildi.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QATAR AMIRI BILAN UCHRASHUV O‘TKAZDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-oktabr kuni mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida O‘zbekiston va Qatar o‘rtasidagi oliy darajadagi faol muloqotlar va tizimli ishlar natijasida aloqalar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani mamnuniyat bilan ta’kidlandi.

Bu kabi yaqin munosabatlar ikki tomonlama do‘stlik hamda hamkorlikni yanada mustahkamlashi alohida e’tirof etildi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi ko‘rib chiqildi. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ijtimoiy va gumanitar sohalardagi loyihalarni yanada kengaytirishga ahdlashib olindi.

Yetakchilar global va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘zA

TIBBIYOT SOHASIDA INFRATUZILMA YAXSHILANIB, XUSUSIY SEKTOR ISHTIROKI KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tibbiy infratuzilmani yagona master-reja asosida rivojlantirish hamda sog‘liqni saqlash tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Tibbiyot muassasalarini joylashtirish, qurish va jihozlash aholining ehtiyojiga tayangan holda rejalashtirilishi zarur. Hozir ayrim hududlarda xizmatlar tarqoq tashkil etilgan, shifo o‘rinlari noto‘g‘ri taqsimlangan, eski binolar va uskunalardan foydalanish esa tibbiy yordam sifatiga ta’sir qilmoqda.

Ishni mavjud obyektlar haqidagi aniq ma’lumotlarni shakllantirishdan boshlash ko‘zda tutilgan. O‘nta viloyatda o‘tkazilgan xatlovda sohaga tegishli 3 ming 499 ta obyekt aniqlangan. Bu Kadastr agentligi ma’lumotlaridagidan 494 taga ko‘p. Barcha hududlarda xatlovni yakunlash, obyektlarning elektron pasportlarini shakllantirish va soha ko‘chmas mulkining yagona raqamli reyestrini yaratish taklif etildi.

Davomi 2-betda

V YOZGI PARAOSIYO O‘YINLARI G‘OLIBLARI VA ISHTIROKCHILARIGA

Matonatli va qahramon o‘g‘il-qizlarim!

Hurmatli ustoz-murabbiylar!

Muhtaram ota-onalar!

Avvalo, barchangizni Yaponiyada bo‘lib o‘tgan V yozgi Paraosiyo o‘yinlarida O‘zbekiston jamoasi tom ma’noda tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritgani bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Mard va jasur farzandlarimiz Osiyo qit’asining 45 ta davlatidan 2 ming 600 nafardan ziyod kuchli para sportchi ishtirok etgan ushbu nufuzli musobaqalarda chinakam jasorat va matonat ko‘rsatib, mamlakatimiz sporti tarixida yana bir shonli sahifa ochganlari barchamizga cheksiz g‘urur bag‘ishlaydi.

Sizlar qizg‘in va murosasiz ruhda kechgan bellashuvlarda 45 ta oltin, 49 ta kumush va 51 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘targaningiz yuksak tahsinga munosibdir.

Sizlarning har bir chiqishingizni yurtimizdagi millionlab muxlislaringiz katta qiziqish va hayajon bilan kuzatib bordi.

Butun O‘zbekiston xalqi Yaratgandan omad va zafarlar tilab, sizlarni chin dildan qo‘llab-quvvatladi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash va farmatsevtika tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish, sohani tubdan isloh etishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta’minlash borasidagi ko‘p yillik samarali mehnati, boy bilim va tajribasi, professional mahorati bilan diagnostika va davolash amaliyotida ilg‘or texnologik va innovatsion usullarni keng qo‘llash, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, aholi salomatligini mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yo‘lidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni bilan

Daminov Botir Turgunpulatovich — Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Djurayev Mirjalol — Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining abdominal jarrohlik bo‘limi ilmiy rahbari

Karimov Shavkat Ibragimovich — Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashtirilgan markazi direktori

Davomi 2-betda



SHAVKAT MIRZIYOYEV INQILOBI

yoxud men nima uchun Prezidentim bilan g‘ururlanaman?

So‘nggi o‘n yillikda amalga oshirilgan va tez yodimizdan ko‘tarilgan dadil islohotlardan biri “propiska” tizimining bekor qilinishi bo‘ldi.

Insonlarni davlat inventariga aylantirib qo‘ygan bu mexanizmning 2017-yilga kelib bekor qilinishi, albatta, tarixiy jasorat, haqiqiy INQILOB edi.

Shavkat Mirziyoyev zimmasiga olgan mas’uliyat faqatgina bargrang pasportlarimizning “yashash manzili” degan sahifasiga uriladigan muhrni mahv etishdangina iborat emasdi. Bu yopiq qozon ichidan chiqib, Vataningning istalgan manzilida ish va qo‘nim topish, kengroq ma’noda aytganda, ozod insondek yashash erkinligi degani edi

4-, 5-betlarga qarang.

Delegatsiyamizning 15 yashar a’zosi Boburbek Toshtemirov para velosportning trek bahslarida O‘zbekistonning Paraosiyo o‘yinlaridagi birinchi oltin medalini qo‘lga kiritish bilan birga eng yosh chempion sifatida ham tarixga kirdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 27-oktabr, 222-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

Yusupov Azamat Farxadovich — Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Vaisov Adxamdjon — Toshkent davlat tibbiyot universitetining 1-dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi professori

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Aliyev Aziz Abdullayevich — Qo‘qon shahri tibbiyot birlashmasining nevrologiya bo‘limi shifokor-nevrologi, Farg‘ona viloyati

Alimuxamedova Nazira Agzamovna — Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining klinik-diagnostik laboratoriyasi laboranti

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Mamasadikov Nurillo Shukrullayevich — Farg‘ona shahridagi “Central Asian medical university” nodavlat ta’lim muassasasi ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Aliyeva Dilfuza Abdullayevna — Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining “Oila va nikoh” maslahatxonasi mudiri

Alyavi Baxromxon Anisxonovich — Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Ashurov Zarifjon Sharifovich — Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Kuldjanov Joldas — Amerika Qo‘shma Shtatlari Sent-Luis universiteti shifoxonasining ortopediya bo‘limi mudiri

Sabirov Ulug‘bek Yusupxonovich — Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Tashmuxamedova Barno Erkinovna — Toshkent shahridagi 1-bolalar klinik shifoxonasining chaqaloqlar patologiyasi bo‘limi mudiri

Tulyaganov Davron Baxtiyarovich — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi bosh direktori

Fozilov Xurshid G‘ayratovich — Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Axmedova Oliya Mamatqulovna — Qashqadaryo viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining allergologiya bo‘limi mudiri

Babajanova Shaxida Dadajanovna — Respublika perinatal markazining akusherlik bo‘limi mudiri

Boboyeva Nodira Isroilovna — Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand viloyati filiali tug‘uruq bo‘limi doyasi

Bolkunova Faina Vladimirovna — O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi rahbari

Kilichev Ibadulla Abdullayevich — Urganch davlat tibbiyot institutining asab kasalliklari, tibbiyot psixologiyasi va psixoterapiya kafedrasi professori, Xorazm viloyati

Saidazizova Shaxlo Xibziddinovna — Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Uzluksiz Tibbiy ta’lim milliy institutining bolalik davri asab kasalliklari kafedrasi dotsenti

Yusupova Nargiza Sotvoldiyevna — Asaka tumani maslahat-diagnostika bo‘limining bolalar shifokor-nevropatologi, Andijon viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Akiko Fuji — Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili

Ayubiy Eisaxan Ayub — Amerika Qo‘shma Shtatlari “Project C.U.R.E.” tashkilotining hukumat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik bo‘yicha bosh direktori

Baiyev Xasan Junidovich — Rossiya Federatsiyasining E.P.Glinka nomidagi Respublika bolalar klinik shifoxonasi yuz-jag‘ va plastik jarrohi

Gizatulina Nazira Rasulovna — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining reanimatsiya bo‘limi anesteziolog-reanimatologi

Musayev Axmet Yusupovich — Ellikqal’a tumani tibbiyot birlashmasining bolalar reanimatsiyasi bo‘limi shifokor-reanimatologi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Pak Antonina Alikovna — Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining skrining-tibbiy maslahat bo‘limi shifokor-genetigi

Toyimbetova Galiya Kalabayevna — Zarafshon shahar ko‘p tarmoqli markaziy shifoxonasining yuqumli kasalliklar bo‘limi shifokori, Navoiy viloyati

Sareva Viktoriya Eduardovna — Akademik Yo.To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toshkent shahar filiali bosh shifokori

Usmanova Parizod Abdikayumovna — Respublika bolalar ftiziatriya va tayanch-harakat tizimi kasalliklari reabilitatsiyasi markazi direktorining davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosari

I darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Karimov Abdufarrux Abdusatarovich — Akademik Yo.To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining neyroxirurgiya bo‘limi ilmiy rahbari

Razikova Ilmira Sadullayevna — Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

Raxmatov Nabijon Saliyevich — To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Yangiobod” oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori, Namangan viloyati

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Begmanov Baxit Qudaybergenovich — Shumanay tumanidagi “Qarabayli” oilaviy shifokorlik punktining oilaviy shifokori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Boboqulova Oysanam Raxmatovna — Yakkabog‘ tumanidagi “Salomatlik” xususiy klinikasi rahbari, Qashqadaryo viloyati

Ganiyev Tulkunjan Gapirovich — Tibbiyot bosh boshqarmasining markaziy klinik shifoxonasi kardiologiya bo‘limi mudiri

Yoqubov Axror Tuyichiyevich — Uchtepa tumanidagi “Jacksoft medical diagnostics services” xususiy klinikasi neyrojarrohi, Toshkent shahri

Komilova Xuri — Piskent tumani tibbiyot birlashmasining ichki dorixonasi provizori, Toshkent viloyati

Kamilova Altinoy Tursunbayevna — Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining gastroenterologiya ilmiy bo‘limi mudiri

Kayumov Taxir Pottaxovich — Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazining bosh shifokori

Qodirova Ra’no Ganiyevna — Zangiota tumani yuqumli kasalliklar shifoxonasining bosh shifokori, Toshkent viloyati

Mustafakulova Saxiba Yevgashevna — Sharof Rashidov tumani tibbiyot birlashmasining Ravot bo‘limi mudiri, Jizzax viloyati

Nasretdinova Shoxida Davranbekovna — Andijon shahridagi 6-oilaviy poliklinikasi bosh shifokori, Andijon viloyati

Omonov Olim Murodullayevich — O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari

Usmanova Gulnara Maxamadjanovna — Toshkent tibbiyot universitetining ko‘p tarmoqli klinikasi bosh hamshirasi

Xolbekova Xakimaxon Ismailovna — Mirzaobod tumanidagi 17-oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori, Sirdaryo viloyati

Chariyeva Salima Ibragimovna — Qumqo‘rg‘on tumanidagi 34-oilaviy poliklinikasi mudiri, Surxondaryo viloyati

Elov Boymurod Dilmurodovich — Buxoro nogironligi bo‘lgan ayollar uchun “G‘amxo‘rlik” markazi shifokor-terapevti, Buxoro viloyati

Ergashova Mukaramoy Jurabayevna — Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazining farmako-toksikologik tahlil laboratoriyasi mudiri

“Jasorat” medali bilan

Buribayeva Arailim Kidirovna — Respublika tez tibbiy yordam markazining Peshku tumani bo‘limi hamshirasi, Buxoro viloyati

Mirzayeva Shohzoda Berdiyorovna — Ko‘kdala tumani tibbiyot birlashmasining reanimatsiya bo‘limi mudiri, Qashqadaryo viloyati

Urazbayeva Svetlana Turdimuratovna — Mo‘ynoq tumanidagi “Qozoqdaryo” oilaviy shifokorlik punkti katta hamshirasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Botirov Meyli Turayevich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Koson tumani bo‘limi haydovchisi, Qashqadaryo viloyati

Gimranov Emil Ildarovich — “UZINFOCOM” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori

Maxmudova Aziza Djumanovna — Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

Narzullayev Abdigafur Urakovich — Ijtimoiy himoya milliy agentligining Nogironligi bo‘lgan shaxslarning funksionalligini baholash boshqarmasi bosh mutaxassisi

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Axmedova Shahlo Abdumuminovna — Arnasoy tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasining patronaj hamshirasi, Jizzax viloyati

Ibragimov Dilshodjon Soatillayevich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Davlatobod tumani bo‘limi feldsheri, Namangan viloyati

Kadirova Flora Zakirovna — Tibbiyot bosh boshqarmasining 1-markaziy konsultativ-diagnostik poliklinikasi jarrohlik bo‘limi shifokor-otorinolaringologi

Kasimov Abdunabi Kadirovich — Chilonzor tumanidagi “Radiks” farmatsevtika korxonasi ta’sischisi, Toshkent shahri

To‘rayev Zafar Aktamovich — Xatirchi tumanidagi 28-oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori, Navoiy viloyati

Xudayberdiyeva Maxsuda Buriyevna — Angor tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi sanitariya shifokori, Surxondaryo viloyati

Shoimqulova Malika — Bekobod tumanidagi “Yangihayot” oilaviy shifokorlik punkti oilaviy shifokori, Toshkent viloyati

Shukurov Shuxrat Utkurovich — Aholi salomatligini tahlil qilish ilmiy-tadqiqot markazining davlat sog‘liqni saqlash siyosati samaradorligini baholash boshqarmasi bosh mutaxassisi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Inomov Firdavs Ulug‘bek o‘g‘li — Bolalar milliy tibbiyot markazining maslahat va diagnostika bo‘limi shifokor-nevrologi

“Shuhrat” medali bilan

Abdunazarov Erkin G‘ulomovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Buvayda tumani bo‘limi haydovchisi, Farg‘ona viloyati

Abduraxmonova Sanoat Abdurafikovna — Samarqand tumani sog‘liqni saqlash bo‘limi katta hamshirasi, Samarqand viloyati

Axmedova Nargiza Maxmudovna — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Buxoro filiali shoshilinch kardiologiya va terapiya bo‘limi shifokor-kardiologi, Buxoro viloyati

Zakirova Zebo Anvar qizi — Sirdaryo tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi IT-operatori, Sirdaryo viloyati

Kutlimuratova Enaxan Egambergenovna — Orolbo‘yi mintaqasi ixtisoslashtirilgan kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining poliklinika bo‘limi diagnostika shifokori, Xorazm viloyati

Murtalibova Nodira Mirmaksudovna — Bolalar milliy tibbiyot markazining nefrologiya va gemodializ bo‘limi shifokor-nefrologi

Murtazayev Nozimjon Ne’matovich — Milliy tibbiyot markazining neyroreanimatsiya bo‘limi shifokor-nevrologi

Nizamov Ulugbek Irgashevich — Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosari

Nasirov Mansur Muxtorovich — Bolalar milliy tibbiyot markazining kam invaziv xirurgiya, transplantologiya va ortopediya bo‘limi mudiri

Omonov Faxriddin Saparovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Oqqo‘rg‘on tumani bo‘limi feldsheri, Toshkent viloyati

Soatova Rano Axmatovna — Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining xirurgiya reanimatsiyasi bo‘limi kichik tibbiy xodimi

Toshbo‘lova Muxayyo Egamqulovna — Jizzax nogironligi bo‘lgan ayollar uchun “G‘amxo‘rlik” markazining kichik tibbiy xodimi, Jizzax viloyati

Umirzokov Nizomiddin Apayevich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Paxtachi tumani bo‘limi haydovchisi, Samarqand viloyati

Usmonov Saida’lo Komiljon o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining standartlar va klinik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va joriy qilish boshqarmasi boshlig‘i

Usmonov Shuxrat Urazali o‘g‘li — Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining reabilitatsiya bo‘limi mudiri

Shoabsarov Abdushohid Aslonovich — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining kuyganlar toksikologiya reanimatsiyasi bo‘limi mudiri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2026-yil 26-oktabr

V YOZGI PARAOSIYO O‘YINLARI G‘OLIBLARI VA ISHTIROKCHILARIGA

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, sizlar ulkan azmu shijoatingiz bilan sporti jadal rivojlanayotgan Hindiston, Janubiy Koreya, Eron, Tailand, Indoneziya kabi davlatlar jamoalarini ortda qoldirib, Xitoy Xalq Respublikasi va Yaponiyadan keyin uchinchi o‘rinni zabt etganingiz — chinakam qahramonlikdir.

Sizlar Paraosiyo o‘yinlarida nafaqat chempionlik maqomini, balki butun xalqimizning ishonchini, Vatanimiz sha’ni va g‘ururini munosib himoya qildingiz.

O‘zbekiston sport delegatsiyasi qo‘lga kiritgan oltin medallarning teng yarmi qizlarimiz hissasiga to‘g‘ri kelganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidlashni istardim.

Shiddatli bahslarda yurtdoshlarimiz jahon va Osiyo rekordlarini yangilab, o‘zbek para sportining imkoniyatlari cheksiz ekanini yana bir bor isbotladilar.

Pauerliftingchi qizimiz Ro‘za Qo‘ziyeva delegatsiyamiz hisobiga oltin medal taqdim etish bilan birga jahon rekordini o‘rnatdi. Madina Muxtorova, Karomat Omonova yadro uloqtirishda, Shahina Yigitaliyeva nayza uloqtirishda, Navro‘za Ahmadova disk uloqtirishda, Xurshid Qodirov 100 metrga yugurishda, Yegor Bolotov 100 metrga chalqancha suzish va 200 metrga kompleks suzish dasturlarida, delegatsiyamiz tarkibidagi eng yosh sportchilarimizdan 16 yoshli Lolaxon Qodirova qizimiz 50 metrga erkin usulda suzishda Osiyo rekordini qayd etdi.

Bundan tashqari, para velosport, pauerlifting va para yengil atletika sport turlari bo‘yicha ham 16 nafar vakilimiz Paraosiyo o‘yinlari rekordini yangilashga muvaffaq bo‘ldi.

Dmitriy Xorlin to‘rtinchi bor, Bobirjon Omonov, Husniddin Norbekov, Qudratilloxon Ma’rufxo‘jayev, Faxriddin Hamroyev uchinchi bor Paraosiyo o‘yinlari shohsupasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, Asila Mirzayorova, Shahina Yigitaliyeva, Guljonoy Naimova, Ro‘za Qo‘ziyeva ikkinchi marotaba qit’ada tengsiz ekanini amalda tasdiqladilar.

Shuningdek, Madina Muxtorova, Navro‘za Ahmadova, Mubinabonu Xalilova raqiblariga hech bir imkoniyat qoldirmasdan, ikki karra, Xurshid Qodirov esa uch karra oltin medal sohibiga aylandi.

Paraosiyo o‘yinlarida birinchi marta ishtirok etgan Yegor Bolotov para suzish dasturlarida 4 ta oltin va 1 ta kumush medalni qo‘lga kiritdi.

Para velosport bo‘yicha jahon birinchiligida O‘zbekistonga ilk tarixiy oltin medalni olib kelgan delegatsiyamiz bayroqdori Marjona Pardaboyeva Paraosiyo bellashuvlarida ham yetakchilikni saqlab qoldi va ikki karra Osiyo chempioni degan sharafli nomga sazovor bo‘ldi.

Delegatsiyamizning 15 yashar a’zosi Boburbek Toshtemirov para velosportning trek bahslarida O‘zbekistonning Paraosiyo o‘yinlaridagi birinchi oltin medalini qo‘lga kiritish bilan birga eng yosh chempion sifatida ham tarixga kirdi.

Bularning barchasi — sizlarning tinimsiz mehnatingiz, bukilmas irodangiz, iste’dod va mahoratingiz, qolaversa, yurtimizda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarimiz natijasi desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Fursatdan foydalanib, mana shunday dovyurak va pahlavon farzandlarni tarbiyalagan, ezgu intilishlaringizni doimo qo‘llab-quvvatlab kelayotgan ota-onalaringiz, mohir va jonkuyar murabbiylaringizga chin yurakdan minnatdorlik izhor etaman.

Qadrli do‘stlar!

Hurmatli sportchilar!

Sizlar Aichi-Nagoya maydonlaridagi yorqin g‘alabangiz bilan Yangi O‘zbekistonda Paralimpiya harakati yuqori bosqichga ko‘tarilgani, bu yo‘lda yangi oltin avlod shakllanganini butun dunyoga namoyon etdingiz.

Bir fikrni alohida ta’kidlab aytmoqchiman: sizlar taqdirning har qanday sinovlariga qaramasdan, faqat g‘alaba, ezgu maqsad va yuksak marra sari intiladigan insonlarsiz. Mana shunday fazilatlaringiz yanada ziyoda bo‘lsin!

Ishonchim komil, Yaponiya zaminida erishilgan natija, to‘plangan tajriba 2028-yil Los-Anjelesda o‘tadigan Paralimpiya o‘yinlari uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Sizlar jahonning ana shu eng nufuzli o‘yinlariga ham albatta munosib tayyorgarlik bilan borasiz!

Kelgusi faoliyatingiz yanada yorqin zafarlarga albatta boy bo‘ladi!

Yangi O‘zbekistonning buyuk sport solnomasini yaratishda sizlarga hamisha omad yor bo‘lsin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TIBBIYOT SOHASIDA INFRATUZILMA YAXSHILANIB, XUSUSIY SEKTOR ISHTIROKI KENGAYTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Shu ma’lumotlar asosida 2026-2036-yillarga mo‘ljallangan tibbiy infratuzilma master-rejalarini amalga oshirish masalasi ko‘rib chiqildi. Har bir hudud bo‘yicha aholi soni va o‘sishi, tibbiy xizmatlarga ehtiyoj, muassasalarning quvvati hamda bemorlarning ularga yetib borish vaqti hisobga olinadi. Master-reja qaysi obyektni saqlab qolish, birlashtirish yoki rekonstruksiya qilish, yangisini qayerda qurish, uni qanday jihozlash va qancha mutaxassis zarurligini belgilaydi. Investitsiya dasturlarini ham shu rejalar asosida shakllantirish nazarda tutilmoqda.

Tizimda muassasalar ko‘rsatadigan yordam darajasiga qarab o‘zaro bog‘lanadi. Murakkab va yuqori texnologik xizmatlar tayanch markazlarda jamlanadi, tumanlarda esa bazaviy va shoshilinch tibbiy yordam saqlanadi. Birlamchi bo‘g‘inni rejalashtirishda qishloq va olis aholi punktlari hamda shaharlar uchun alohida xizmat ko‘rsatish me’yorlari qo‘llanadi.

Bunday yondashuv zarurati Samarqand viloyati misolida ko‘rsatib berildi. Viloyat aholisining 80 foizi tumanlarda yashaydi, biroq tumanlar hissasiga shifo o‘rinlarining 41,7 foizi to‘g‘ri keladi. Master-rejada tibbiy hududlarni qayta tashkil etish orqali tumanlar ulushini 67 foizga yetkazish, xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish ko‘zda tutilgan.

Samarqand shahri, Urgut, Pastdarg‘om, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon va Payariqda yangi shifoxonalar qurish hamda mavjudlarini rekonstruksiya qilish rejalari haqida axborot berildi. Viloyat markazidagi ixtisoslashgan muassasalarni ko‘p tarmoqli shifoxonalar negizida qayta tashkil etish, markaziy laboratoriyalar, sterilizatsiya va tashxislash xizmatlarini rivojlantirish taklif qilindi. Urgut, Kattaqo‘rg‘on va Pastdarg‘omda 2030-yilgacha jami 1 ming 500 ta yangi shifo o‘rni yaratish nazarda tutilmoqda.

Yangi obyektlar faqat bino qurish bilan cheklanmasligi ta’kidlandi. Poliklinika va shifoxonalarni loyihalashda bemorlar harakatini qulay tashkil etish, infeksion nazorat, inklyuziv muhit va xonalarni jihozlash bo‘yicha yagona talablarni joriy etish taklif qilindi. Davolashda esa xalqaro tavsiyalarga asoslangan klinik protokollarni milliy sharoitga moslashtirish, amaliyotga tatbiq etish va natijalarini muntazam baholash ko‘zda tutilmoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga doir qaror loyihasi ham ko‘rib chiqildi. Unda tibbiy va yordamchi xizmatlarni, jumladan, gemodializ, laboratoriya diagnostikasi, tashxislash hamda uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatishni autsorsing asosida xarid qilish taklif etilgan. Bir yillik shartnomalar o‘rniga besh yilgacha bo‘lgan hamkorlik mexanizmlarini qo‘llash xususiy sheriklarga uskuna va xizmatlarga uzoq muddatli sarmoya kiritish imkonini beradi.

Bunda davlat tibbiyot muassasasi xizmatni xarid qiladi, xususiy tashkilot esa zarur uskunani o‘z hisobidan olib kelib, uning ishlashi va yangilanishini ta’minlaydi. Xaridlarni tashkil etish uchun yagona tender hujjatlari va elektron tizim joriy etish, ayrim muassasalarni professional kompaniyalarga boshqaruvga berish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari taqdimot qilingan takliflarni puxta ishlab chiqib, bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

O‘zA

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Davlatimiz rahbarining kinoijodkorlar bilan qilgan muloqoti quvonchli yangiliklarga boy bo‘ldi. Soha fidoyilari yillar davomida orzu qilib yurgan niyatlari ijobat bo‘lib, kutilganidan ham ko‘ra ko‘proq imkoniyatlar eshigi ochildi. Jumladan, “O‘zbekfilm kino shaharchasi” tashkil etiladi.

2026-yil 27-oktabr, 222-son

MILLIY KINO – O‘ZLIK, MILLIY G‘URUR VA MILLAT TAFAKKURI KO‘ZGUSI

Boshlanishi 1-betda

Ochiq, samimiy ruhda o‘tgan uchrashuvda mamlakatmiz yetakchisi erishilgan natijalar bilan birga muammolarni ham ochiq ko‘rsatib o‘tdi. Ochig‘i, bugun ijtimoiy tarmoqlar rivojlangani uchun odamlar kinoteatrga bormay qo‘ydi, deymiz. Lekin xorijiy filmlar namoyishida kinozallar to‘lyapti. Ha, tomoshabin kinoteatrlarga borishdan voz kechgani yo‘q. Faqat uning didi va talabi o‘zgargan. Masala shundaki, bugungi tomoshabin talabga javob beradigan filmni ishlab chiqarishdan tomoshabinga yetkazishgacha bo‘lgan yaxlit zanjir — distributsiya shakllanmagan. Shuningdek, professional kinotanqidchilar fikri bilan yetarlicha hisoblashilmayapti. Tahlil, tanqid aslida saralash, yaxshi asarlarni boshqalarga tanitish, kamchilliklar kelgusida takrorlanmasligi uchun muhim zamindir.

Yana bir jihat. Amaldagi davlat buyurtmasi va xaridi tizimi zamonaviy kinoindustriya talablariga javob bermayapti. Masalan, bir vaqtning o‘zida bitta rejissyorga oltitagacha, bir muallifga yettitagacha loyiha biriktirilgan. Buyurtmalarning deyarli yarmi davlat studiyalariga berilgan. Oqibatda xususiy ijodkorlarning teng raqobat qilish imkoni cheklangan. Kino — ijod. U erkinlikni xush ko‘radi. Shu bois, ijodkorlardan filmni oddiy tovar yoki qurilish obyekti kabi texnik topshiriq asosida xarid qilish to‘g‘ri emas. Davlatimiz rahbari shu kabi holatlarni tahlil etar ekan:

— Aslida, ijodkor mehnatining natijasi tomoshabinni chuqur o‘yga solib, qalbida iz qoldirgan film bilan o‘lchanishi kerak, — dedi.

Mamlakatimiz yetakchisi kino xalqlar bir-birini tanishiga xizmat qilishini, o‘z tarixi, madaniyati va milliy qahramonlarini jahon ekranlarida munosib ko‘rsata olgan mamlakatning ovozi va ta’siri kengayishini ta’kidladi. Kino bugun mamlakatning xalqaro nufuzini oshiradigan “yumshoq kuch”ga aylangan. U farzandlarimiz ongi va dunyoqarashini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Prezidentimiz “O‘z” g‘oyasini ilgari surgan edi. Kinoijodkorlar bilan uchrashuvda ushbu g‘oyaning ushbu san’atdagi ifodasini “O‘zligimizni anglab, o‘z hikoyamizni o‘z ovozimiz bilan dunyoga aytish” deb ta’rifladi. Ochig‘i, o‘zlik degan olis tarix ko‘z oldimizga keladi. Ammo bugun ham biz bilan yelkadosh bo‘lib, mana shu xalq, vatan uchun mehnat qilayotgan qahramonlar ko‘p. Demak, “O‘z” g‘oyasini kino orqali anglashimiz uchun nafaqat ajdodlar, balki zamondoshlarimiz timsolini ham ekranda shakllantirish zarur. Mamlakatimiz yetakchisi, o‘qituvchilar, shifokorlar, sportchilar, Vatan himoyachilari, tadbirkorlar, quruvchilar va yoshlarning hayoti ta’sirli filmlar uchun katta mavzu ekanini qayd etdi.

— Farzandlarimiz shunday qahramonlarda o‘zini ko‘rsin, o‘z kuchiga ishonsin, o‘z yurtining kelajagiga daxldorligini his etsin! — dedi davlatimiz rahbari.

Orzudagi ekin ijodiy muhitni yaratish, zamon qahramonlarini XXI asr tomoshabiniga ma’qul keladigan tarzda katta ekranga olib chiqish sohada islohotlar olib borishni talab etmoqda. Prezidentimiz ana shu jarayonlarni to‘la qamrab oladigan yangi va hayotbaxsh tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, milliy kinoni rivojlantirish uchun sohani boshqarish, moliyalashtirish va film yaratish vazifalari aniq ajratiladi. Buning uchun Kinematografiya agentligi tugatilib, davlat siyosatini yuritish vakolati Madaniyat vazirligiga o‘tkaziladi. Vazirlikda Kino san’ati departamenti tashkil etiladi. Uning rahbari maqomi vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi. Mas’ullarga bir oyda yangi departament ishini yo‘lga qo‘yish va agentlik tizimini tugatish ishlarini yakunlash topshirildi.

Davlat muassasasi bo‘lgan “O‘zbekfilm” tugatiladi. Uning o‘rnida zamonaviy biznes modeli asosida ishlaydigan “O‘zbekfilm” milliy kinokompaniyasi tashkil etiladi. E’tiborlisi, kompaniyaning o‘zi film ishlab chiqarmaydi. U loyihalarni tanlash va moliyalashtirish, filmlarni targ‘ib qilish, tarqatish hamda xalqaro bozorlar, festivallarga olib chiqish bilan shug‘ullanadi. O‘z o‘rnida filmlarni yaratish to‘liq xususiy sektorga o‘tadi. Kino san’ati milliy davlatchilikning eng samarali targ‘iboti, ayni damda mamlakat iqtisodiga katta hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan yirik sanoat hamdir. Ya’ni tomoshabin talabiga mos asarlar katta foyda keltiradi. Ayni paytda bunday asarni yaratishda ijodiy va iqtisodiy erkinlik zarur. Shu bois, kinolarni moliyalashtirishda davlat buyurtmasi bekor qilinadi. Uning o‘rniga subsidiya asosida qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etiladi.

— Bundan buyon davlat filmning buyurtmachisi emas, ijodkorlar va xususiy sektorning ishonchli hamkori bo‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

Ta’kidlanganidek, yangi tizimda texnik topshiriqlarga emas, ijodiy jarayon va uning talablariga ustuvorlik beriladi. Moliyalashtirish mexanizmini bir oyda joriy etish, kelgusi yildan boshlab milliy kinokompaniya so‘roviga ko‘ra har yili byudjetdan tegishli mablag‘ ajratib borish topshirildi.

Davlatimiz rahbarining kinoijodkorlar bilan muloqoti quvonchli yangiliklarga boy bo‘ldi. Soha fidoyilari yillar davomida orzu qilib yurgan niyatlar ijobat bo‘lib, kutilganidan ham ko‘ra ko‘proq imkoniyatlar eshigi ochildi. Jumladan, “O‘zbekfilm kino shaharchasi” tashkil etiladi. “O‘zbekfilm”ning 10 gektar hududida barpo qilinadigan shaharcha kino xizmatlarini o‘zida jamlagan yagona industrial klaster bo‘ladi. Buning uchun 400 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Bundan tashqari, “Kino shaharchasi”da quriladigan zamonaviy Dublyaj va ovozlashtirish markazi uchun 80 milliard so‘m ajratiladi. Ikki oyda shaharchaning master-rejasi va loyiha-smetasini ishlab chiqish, qurilishni keyingi yil mart oyidan boshlash vazifasi qo‘yildi.

Quyi Chirchiq tumanida zamonaviy talablar asosida ta’mirlangan “Ko‘hinur” sihatgohi to‘lig‘icha kinoijodkorlar ixtiyoriga beriladi. Shuningdek, har yili sohaning kamida 300 xodimiga respublika sihatgohlarida dam olish va davolanish uchun bepul yo‘llanma beriladi.

Tahlil va tanqid soha rivojiga xizmat qiladi deya ta’kidlagan edik. Prezidentimiz sohadagi mazkur bo‘shliqni ham to‘ldirish vazifasini ko‘rsatib o‘tdi. Xususan, “Kinoshunoslar klubi” tashkil etiladi. U sohada ilm, tahlil va professional tanqidchilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayni o‘rinda yana bir haqiqatni tan olish kerak. Global dunyoda o‘z qobig‘idan chiqib, xalqaro mezonlar asosida ishlaganlar yutadi. Chunki globallik keng tanlovlarni taqdim etadi. Ana shu raqobat muhitida esa o‘ziga xoslik, zamon talabini oldindan his etish samara beradi. Bu, albatta, tahlilchilar, soha bilimdonlarining vazifasi. Shu bois, Milliy kinokompaniya “Kinoshunoslar klubi”ning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Xalqaro kinotanqidchilar federatsiyasi — FIPRESCIga a’zo bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Shuningdek, O‘zbekiston kino sohasi vakillari palatasi tuziladigan bo‘ldi. Buning uchun O‘zbekiston Kino arboblari va O‘zbekiston kino sanoati vakillari uyushmalari birlashtiriladi. Yangi palata ijodkorlarning mualliflik huquqlari va kasbiy manfaatlarini himoya qiladi. Yoshlarning professional o‘sishiga ko‘maklashadi. Yosh kinoijodkorlarning xorijda malaka oshirishi qo‘llab-quvvatlanadi.

Har bir sohada milliy brend yaratishni davrning o‘zi talab etmoqda. Brend o‘zimizni tanitishdir. O‘zlikni anglash esa, avvalo, jamiyatda shakllanadi. So‘ng xalqaro maydonda quloch yozadi. Shu bois, Prezidentimizning “O‘zbekfilm” nomini milliy kinomizning yagona brendi sifatida mustahkamlash taklifi uchrashuvga yanada ko‘tarinki ruh berdi. Ushbu brendni yaratish uchun amaliy tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, hozirgi Chilonzor ko‘chasining ushbu qismiga “O‘zbekfilm” nomini beriladigan bo‘ldi. Kino san’ati muzeyi, Kino san’ati saroyi va Milliy kinofondni ham shu nom ostida birlashtiriladi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari tajribali kinoijodkorlar va yoshlarning fikrlarini tingladi. Ochiq, samimiy ruhdagi muloqot chog‘ida ijodkorlarning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi. Yaxshi kino yaratish uchun halol mehnat, vatanparvarlik va xalqimizni sevib ijod qilish zarurligi aytildi.

— Sizlarga ishonaman, o‘zligimizdan kuch olib, bugungi hayotimizni teran anglab, milliy kinomizning yangi sahifasini birgalikda yarata olamiz, — dedi Prezidentimiz.

Shundan so‘ng Prezidentimiz Abu Ali ibn Sinoning bolaligiga bag‘ishlangan “Husayn” tarixiy-badiiy filmining suratga olish maydoni bilan tanishdi. Ushbu asar Bolalar kontentini rivojlantirish markazi buyurtmasi asosida suratga olinmoqda. Uning ishonarli chiqishi uchun “O‘zbekfilm” kinostudiyasida alloma yashagan davr muhitini aks ettiradigan dekoratsiyalar barpo etilgan.

Davlatimiz rahbari tarixiy shahar devorlari, ko‘cha va bozor manzaralari, davr liboslari hamda suratga olishda foydalaniladigan buyumlarni ko‘zdan kechirdi. Shu yerda kinoijodkorlar bilan muloqot bo‘ldi.

Prezidentimiz davlat milliy ruhdagi, buyuk ajdodlarimiz hayotiga bag‘ishlangan filmlar yaratilishiga e’tiborni yanada kuchaytirishini ta’kidladi. Bu yerda barpo etilgan dekoratsiyalarni yuqori baholab, boy tariximiz va allomalarimiz merosini kino tili orqali yosh avlodga yetkazish, ularda o‘z o‘tmishiga qiziqish va iftixor tuyg‘usini uyg‘otish muhimligini ta’kidladi.

“Husayn” filmini yaratish Abu Ali ibn Sino ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi”da belgilangan. Hujjatda alloma tavalludining 1050 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish ham nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqib, filmda yosh Husayn ibn Abdullohning tabobatga muhabbati, ustozlariga sadoqati va insonparvarligi tasvirlanadi. Asar orqali bolalarga allomaning ilmga intilishi va shaxsiy fazilatlarini yaqindan tanitish ko‘zda tutilgan.

Muloqot chog‘ida ilgari surilgan tashabbuslar o‘zbek kinosida yangi tarix sahifasini ochdi. Buni uchrashuvdan masrur qiyofada, yangiliklarni bir-biriga takrorlab qaytayotgan kinoijodkorlar yuz-ko‘zida ham ko‘rish mumkin edi. Yosh kinoijodkorlarning quvonchdan yurak urishi eshitilardi. Bildirilgan ishonch va berilgan imkoniyatlardan qanot chiqarib uchguday yengil qadam tashlab borardi. O‘rta avlod vakillari ular bilan hamqadam ekanidan faxrlanar, keksa avlod esa kechagi kunni bugunimiz bilan qiyos etib, goh mamnun jilmaysa, ba’zan olis xotiralar girdobida o‘yga tolardi. Turli avlod vakillarining orzusi bir vaqtda amalga oshsa, mana shunday manzara kasb etar ekan-da!

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Iftixor

Yaponiyaning Aichi-Nagoya shaharlarida bo‘lib o‘tgan V yozgi paraosiyo o‘yinlarida sportchilarimiz yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, mamlakatimiz parasporti tarixidagi eng yuqori natijani qayd etdi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari paraatletlarimizga tabrik yo‘lladi.



PARASPORTCHILARIMIZNING TARIXIY NATIJASI

Ular bukilmas irodasi, so‘nmas matonati, iste’dodi va mahorati bilan rekordlarni yangiladi

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

“Kunchiqar yurt zaminida o‘zbek bayrog‘ining 45 marta yuqori ko‘tarilgani ko‘p sonli xalqimiz, paralimpiya muxlislarini to‘lqinlantirdi. Sportchilarimizning shijoati, matonati oxirgi daqiqalarga qadar so‘nmadi. Bir so‘z bilan aytganda, Yaponiya paraosiyo o‘yinlari o‘zbek paraatletlarining yangi jamoasini kashf etdi.





“Sizlar Aichi-Nagoya maydonlaridagi yorqin g‘alabangiz bilan Yangi O‘zbekistonda Paralimpiya harakati yuqori bosqichga ko‘tarilgani, bu yo‘lda yangi oltin avlod shakllanganini butun dunyoga namoyon etdingiz.

Bir fikrni alohida ta’kidlab aytmoqchiman: sizlar taqdirning har qanday sinovlariga qaramasdan, faqat g‘alaba, ezgu maqsad va yuksak marra sari intiladigan insonlarsiz. Mana shunday fazilatlaringiz yanada ziyoda bo‘lsin!”, deyiladi tabrikda.

Mamlakatimizda parasport yildan yilga rivojlanyapti. Bundan 3 yil avval Xanchjouda bo‘lib o‘tgan paraosiyo o‘yinlarida o‘zbek paraatletlari 25 oltin, 24 kumush va 30 bronza medal bilan 45 mamlakat orasida 8-pog‘onadan o‘rin olgan edi. Bu gal sportchilarimiz avvalgi musobaqada kuchli uchlikni yakunlab bergan kunchiqar yurt vakillariga ham jiddiy raqib ekanini ko‘rsatib qo‘ydi. Ketma-ket uch kun davomida xitoylik parasportchilardan so‘ng medal jamg‘arish bo‘yicha O‘zbekiston 2-o‘rinda muqim turdi.

O‘tgan qisqa muddatda o‘zbek delegatsiyasi qanday yo‘l xaritasi tuzgani, karrasiga ortgan yutuqlarimizning sir-sinoati nimada ekani raqobatchilaru sport olami mutaxassislarini ham qiziqtirib qo‘ydi. Buning sirli jihati yo‘q, aslida. Muvaffaqiyatlarimiz zamirida mamlakatimizda sportga qaratilayotgan alohida e’tibor, nogironligi bo‘lganlarning imkoniyatini namoyon etishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar mujassam. Bundan ruhlangan sportchilarimiz inson qadri har qachongidan ulug‘lanayotgan yurtga munosib farzandlik maqsadi bilan maydonga tushyapti. Beshinchi paraosiyo o‘yinlari buni yana bir karra isbotladi. Shu ma’noda, u mamlakatimiz sporti tarixida o‘ziga xos voqea sifatida muhrlandi.

Terma jamoamiz 145 (45 oltin, 49 kumush va 51 ta bronza) medal bilan Xitoy va Yaponiyadan keyin 3-o‘rinni egalladi. Bu avvalgi paraosiyo o‘yinlariga nisbatan 5 pog‘ona yuqori natija degani. Sportchilarimiz jahon va Osiyo rekordlarini yangilash barobarida paraosiyo o‘yinlari rekordini ham o‘rnatdi. Albatta, bu oson bo‘lmadi. Haqiqiy ma’noda matonat, mahorat va iroda namoyish etilib, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda parasport qanchalik rivojlangani amalda ko‘rsatildi.

Kunchiqar yurt zaminida o‘zbek bayrog‘ining 45 marta yuqori ko‘tarilgani ko‘p sonli xalqimiz, paralimpiya muxlislarini to‘lqinlantirdi. Sportchilarimizning shijoati, matonati oxirgi daqiqalarga qadar so‘nmadi. Bir so‘z bilan aytganda, Yaponiya paraosiyo o‘yinlari o‘zbek paraatletlarining yangi jamoasini kashf etdi.

Ro‘za Qo‘ziyeva (parapauerlifting bo‘yicha) jahon rekordini yangilagan bo‘lsa, Madina Muxtorova (yadro va disk uloqtirish), Navro‘za Ahmadova (yadro va disk uloqtirish), Yegor Bolotov (100 metrga chalqancha suzish), Lola Qodirova (50 metrga erkin usulda suzish), Shahina Yigitaliyeva (nayza uloqtirish) kuchli irodasi va matonati bilan Osiyo rekordini o‘rnatdi.

Aqidaxon Axtamova (parapauerlifting), Mahliyo Akramova (klab uloqtirish), Qudratilloxon Ma’rufxo‘jayev (disk uloqtirish), Doston Qahhorov (400 metrga yugurish), Boburjon Omonov (yadro uloqtirish), Barotjon Baxtiyorov (yadro uloqtirish), Asila Mirzayorova (uzunlikka sakrash) kabi sportchilarimiz esa paraosiyo o‘yinlari rekordchisi degan nomga sazovor bo‘ldi.

Vakillarimiz orasidan Asila Mirzayorovaning Osiyo Paralimpiya qo‘mitasi sportchilar qo‘mitasi a’zosi etib saylangani ham barchamizni ruhlantirdi. Sportchimiz ayollar o‘rtasidagi T11 klassining uzunlikka sakrash finalida 5,04 metr natija bilan oltin medalni qo‘lga kiritib, paraosiyo o‘yinlari rekordini o‘rnatdi. Shu tariqa musobaqadagi ishtirokini bitta oltin, bitta kumush va bitta bronza medal bilan yakunladi.

— Prezidentimiz bizni kuzatib borayotganini eshitib, jamoadoshlarimiz bilan benihoya ruhlandik, — deydi Paraosiyo o‘yinlari g‘olibi Muslima Odilova. — O‘zimning yo‘nalishimda oltin medalni qo‘lga kiritdim. Suzish bellashuvida 10 sportchi qatnashdik va 30 ga yaqin medalga sazovor bo‘ldik. To‘g‘ri, qayerdadir omadimiz kelmadi, qayerdadir vaqt yetmadi. Keyingi safar bundan ham yaxshi natijalarga erishamiz. Zero, oldimizda Los-Anjeles musobaqasi turibdi.

Balandlikka sakrash bo‘yicha bahslarda ishtirok etgan Temurbek G‘iyosov va yana ko‘plab bronza va kumush medal sovrindorlari Los-Anjelesda medalini oltinga aylantirish maqsadida ekanini ishonch bilan ta’kidladi.

O‘z o‘rnida shunday iroda va matonat sohiblariga sportsevar xalqimiz ham ulkan g‘alabalar uchun minnatdorlik bildirib, tasannolar aytmoqda. Binobarin, odamlar endi eng chekka qishloqlardagi iqtidorlilar ham san’at, ilm-fan, sportning ortidan manaman degan davlatlarda bemalol o‘zini ko‘rsata olishini tushunib yetyapti. Ayniqsa, sport insonni butun dunyoga tanitishi takror-takror o‘z tasdig‘ini topyapti. Inklyuziv ta’lim, har tomonlama alohida g‘amxo‘rlik sabab nogironligi bor yigit-qizlar ham jamiyat hayotida faol ishtirok etishga intilyapti. Xususan, parasportchilarimiz erishayotgan katta-katta g‘alabalar buning yaqqol isbotidir.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yozayotgan maqolamga “inqilob” va “g‘urur” tushunchalarini asosiy g‘oyaviy tayanch sifatida tanlaganim bejiz emas. Zotan, Shavkat Miromonovich bugungacha amalga oshirgan tarixiy yangilanishlar mohiyati yetarlicha ochib berilgani yo‘q.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 27-oktabr, 222-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

SHAVKAT MIRZIYOYEV
yoxud men nima uchun Prezidentim

Publitsistik esse

Boshidan bir gapni aytmoqchiman, avvalo, janr masalasida. Garchi shakl publitsistik bo‘lsa-da, struktura nuqtai nazaridan mazkur matn essega tortibroq ketdi. Shu bois, noan’anaviyroq bo‘lsa-da, uni shunday atashni lozim topdim. Keyin, sarlavha borasida ham turli mulohazalar bo‘lishi mutlaqo tabiiy deb o‘ylayman. Elitar poeziyamizning an’anaviy “sasi” sezilib turadigan bunday balandparvoz so‘zlar bugun normal o‘quvchini bezdirganini yaxshi tushunaman. Ammo meni muammo so‘zlarda emas, ularni istifoda etishda degan ishonch doimo umidlantirib turadi. Va, albatta, maqola davomida ikki “yaltiroq” so‘z — “inqilob” (ayniqsa, bu atama bo‘yicha chuqurroq fikr bildirmoqchiman) va “g‘urur” istilohlariga nisbatan da’volarimni asoslashga harakat qilaman. O‘ylaymanki, ayni jarayonning o‘zi matnga qo‘yilgan adabiy tavsif maqomini ham oqlaydi.



Qudratilla RAFIQOV,
siyosatshunos

I

chili-fransiyalik mashhur dramaturg va rassom Alexandro Xodorovski “Qafasda tug‘ilgan qushlar parvoz qilishni kasallik bo‘lsa kerak deb o‘ylashadi” degan edi.

O‘z davrida Pikassoni ham mutaassir qilgan ayni aforizmni qaramlik va ozodlik, jo‘n aytganda, qullik zehniyatining so‘z orqali chizilgan mukammal tasviri deyish mumkin. Men juda ko‘p maqolalarimda tafakkur ozodligi haqida gapirganman. Va bugun shuni anglab yetayotirmanki, bu ish bilan nafaqat bir-ikki odam, balki olimlar, ziyolilarning katta armiyasi shug‘ullanishi shart va zarur ekan. Negaki jamiyatning o‘zgarishi odamlar dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liq. Ayni mulohazani Prezidentimiz juda ko‘p va ta’sirli tarzda ifoda etgani ham bejiz emas. Jumladan, davlatimiz rahbari “Bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”, der ekan bevosita odamlarimiz ongi tezroq o‘zgarishiga ishora qiladi. Haqiqat shundaki, bir asrdan ortiq davr mobaynida tafakkurlarimizga singdirilgan qaramlik ta’siridan chiqib ketishimiz og‘ir kechayotir. Nafaqat iqtisodiyot va siyosatda, balki kundalik turmushimiz, madaniyatu yurish-turishimizda ham kechagi kun “an’ana”lari sezilib turadi. Va bu jarayonlar bizning “o‘zimiz”dan ancha nari ketib qolganimizni anglatadi.

Men yaqinda yurtimizda tadqiqot olib borgan xorijlik bir antropolog olimning maqolasi bilan tanishdim. U ko‘targan mavzusida nega o‘zbek jamiyatida odamlar ko‘proq bir xil tusdagi, masalan, oq va qora rangdagi ust-bosh kiyishni urf qilishgani haqida mulohaza yuritadi va o‘z fikrini, bu kommunistik mafkuraning “maishiy-madaniy siyosati” bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin deya xulosalaydi.

Darhaqiqat, mustamlakachilik yaratgan “milliy mentalitet” nafaqat an’ana, balki “kim”lik kodi” darajasiga do‘nib qolganini biz ko‘p ham payqamaymiz. Oddiy odamlar u yoqda tursin, akademik doiralarimizda ham bu mavzular bugun jiddiy muhokama qilinayotganiga shubha bilan qarayman. Shunchaki misol, ayni damda mintaqamiz jamiyatlarida, deylik, palov o‘zbek va tojiklarning, beshbarmoq qozoq va qirg‘izlarning milliy taomi deyilishi mutlaqo haqiqat sanaladi. Holbuki, sotsial madaniyatimizdagi bunday “tartib” aslida sun’iy ravishda singdirilgan bo‘lishi ham mumkinligi haqida kam shubhaga boramiz yoki bu borada tushunchalarning umuman yo‘qligi bois, konformizmga yuz buramiz.

“Sovet davrida nafaqat oshxona geografiyasi, milliy ust-boshimiz ham markazdan “loyihalashtirilgan” deydi kelib chiqishi qirg‘izistonlik bo‘lgan AQSHlik tadqiqotchi Erika Marat. Uningcha, “... har bir respublikaga nomini bergan etnik guruhga standartlashtirilgan “an’anaviy” taomlar va kiyinish turlarining muayyan to‘plami tepadan belgilab berilgan. Ki-yim-kechakning turlicha hayot tarzi, iqlim sharoitlari, ijtimoiy mavqe va vazifalarga moslashtirilgan murakkab ko‘rinishlari har bir sovet respublikasi uchun bitta standart libosgacha soddalashtirilgan”. Ushbu qarash nafaqat ijtimoiy-siyosiy, industrial sohalar, jumladan, qurilish va arxitekturada ham o‘z tajallisini topgan. Birgina o‘tgan asrning 40-70-yillarida Toshkentda amalga oshirilgan me’morchilik nafaqat quruvchilik, balki siyosat darajasidagi masalaga aylanganini zukko odamlar yaxshi bilishadi (Shu yerda aytib ketay, bugun men aynan bunyodkorlik va davlat siyosati, hukmron mafkuralar va oddiy odamlarning turmush tarzi borasida kengroq gapirishni maqsad qilganman).

To‘g‘ri, bugungacha “sovet modernizmi” sifatida talqin etiladigan “Chorsu” bozori, “O‘zbekiston” mehmonxonasi, “Xalqlar do‘stligi” saroyi kabi inshootlar o‘z davrining benazir loyihalari edi. Ammo bu ansambllarni qurishda modernistik arxitekturaga mahalliy identlik sifatlari singdirilishi ham safarbarlik samimiyatini shubhadan xoli qila olmadi. Chunki ushbu bunyodkorlik “tomirlari” ilhomni kommunistik mafkura sarchashmasidan olayotgandi. Unga ko‘ra, Toshkent sovetlarning butun Sharqdagi “vitrina”si, qolaversa, sotsializmning musulmon o‘lkasidagi g‘alabasini aks ettirishi lozim edi (ushbu iddaolar me’morlar hisobotlarida urg‘ulangani arxiv hujjatlarida muhrlangan).

O‘zi, umuman, tarixni kuzatsangiz, bunyodkorlik sifatida talqin etiladigan jarayonlar aksariyat hollarda ijtimoiy-gumanitar hodisadan ko‘ra, ko‘proq hokimiyatning “siyosiy tili” vazifasini o‘tashga safarbar qilinganiga guvoh bo‘lishingiz mumkin (bu masalada haliroq jahon tarixi va qolaversa, o‘zimizning yaqin o‘tmishdan ham misollar keltiraman).

O‘rni kelganda o‘sha davr qurilishlari haqida yana bir mulohazani aytmoqchiman. Ushbu masalada eski zamonni qo‘msovchilar bir fikrni ilgari surishni yaxshi ko‘radi: ya’ni sobiq tuzum bizda urbanizatsiya madaniyatini paydo qildi, ko‘plab shaharlar qurdi...

Ochig‘i, bu fikr bilan oyoq tirab tortishmoqchi emasman. Haqiqatan, o‘tgan asrning 30-80-yillari davomida yurtimizda o‘nlab yangi shaharlar paydo bo‘ldi. Buni inkor qilib bo‘lmaydi. Ammo shu yerda, garchi bundan maqsad “insonlarning baxtu saodati” bo‘lmasa, unda muddao nima edi degan haqli savolga ham javob berib ketish kerak. Masalan, Navoiy, Olmaliq, Angren, Uchquduq, Zarafshon, Guliston va yana shunday o‘nlab maskanlarning bunyod etilishini bugun qanday sharhlasak to‘g‘ri bo‘ladi?! Gapni cho‘zmay darrov aytaman, bu kentlarning barchasi o‘z xarakteriga ko‘ra monoshahar (iqtisodiy jihatdan bir asosiy korxona yoki tarmoqqa tayangan) lar edi. Ya’ni bunyodkorlikdan maqsad hech qachon inson bo‘lmagan. Balki yer osti va usti boyliklarini instrumentlashtirish rejasining bir qismi bo‘lgan. Albatta, bundan hafsala pir bo‘lmasligi kerak. Chunki metropoliyalar qadariga o‘z periferiyalarini obod qilish va yoki mahalliy aholining peshonasini “yarqiratish” yozilgan farishtalar deb o‘ylasak, xato qilgan bo‘lamiz. Biz mansub “kolonializm” esa insoniyat tarixidagi boshqa turdoshlariga nisbatan “axloqiy norasoligi” bilan ham ajralib turgan. U insondan ko‘ra g‘oya-ni afzal biladigan, o‘z g‘alabasi va manfaati yo‘lida xalqlardan vosita sifatida foydalanishdan-da tortinmaydigan global dunyodagi siyosiy submadaniyat o‘laroq taassurot qoldiradi bugun.

Shunday tuzum hamda siyosat, jonli bir hayotni ko‘rgan odam endi “Inson qadri uchun” degan g‘oya nima sabab kun tartibiga chiqqanini hamda uning ahamiyatini juda yaxshi tushunadi.

II

Yuqorida Xodorovskidan keltirilgan iqtibos bejiz emas. Zotan, boya aytganimdek, bugun bizda postkolonializm-mustamlakaviy hukmronlik “oqibatlari” va dekolonializm-mustamlakachilik merosi, tafakkuri, hukmronlik ko‘rinishlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish borasida amaliy qadamlar sezilayotgani yo‘q, desam, noto‘g‘ri gapirmagan bo‘laman.

Shu o‘rinda bir mulohazani bayon etmoqchiman. Real ma’naviy ahvolimiz “manzara”larini bizda fandan ko‘ra adabiyot va san’at jabhasi ertaroq, o‘sha “oshkoralik” zamonlaridan-da oldinroq anglagan va uni poetik uslubda ko‘rsatishga harakat qilgan edi. Misol uchun, o‘tgan asrning 80-yillarida zamonasining mashhur rejissyori Mark Vayl “Ilxom” teatrida Yevgeniy Shvarsning “Ajdarho” ertagini sahnalashtirgandi. Ushbu majozga qurilgan asarda shahar odamlari o‘zlari quli bo‘lgan keksa ajdarhoni o‘ldirgani kelgan bahodirga qarshi chiqadi. Sabab: ular bandilikka ko‘nikib qolishganida edi... Albatta, allegoriyalar o‘z-o‘zidan tug‘ilmaydi. Va Vayl ham turg‘unlik yillarida bu asarga bekorga murojaat qilmagandi. Biroq hozir gap adabiyot yoki san’at janrlari va yana metamorfozalar dramatizmi haqida emas, masala oradan deyarli qirq yil o‘tayotgan bo‘lsa-da, biz uchun mudom ayni mavzuning eskirmay qolayotganida.

Ammo qiziq paradoks shundaki, biz shu holimizcha ham demokratiyaning yuksak andozalarini talab etib xarxasha qilamiz, ba’zan. Qozog‘istonlik juda mashhur siyosatchi bir zamonlar kinoya bilan “Amerikadagidek demokratiyani joriy qilishni istardik, lekin Qozog‘istonda shuncha amerikalikni qayerdan topamiz?” deganida katta ehtimol bilan shuni nazarda tutgan bo‘lsa, ajabmas...

Shu mulohazalardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, bugun bizning oldimizga qo‘yiladigan eng katta va foydali savol “biz demokratiyaga tayyormizmi, yo‘qmi?”dan ko‘ra, ko‘proq “biz dekolonializmni qanday tushunamiz?” bo‘lishi kerakdek taassurot uyg‘otadi odamda.

Ayni ma’noda, matnda foydalanilgan ikki allegoriya vosita o‘laroq maqsadni to‘liq oqlaydi. Taassuf shu yerdaki, nafaqat olim yoki mutaxassis, balki qiziquvchan oddiy inson ham bugun jamiyatimiz “tomiri”ni ushlab, ayni “tashxis” alomatlarini sezishi mumkin. Ha, ko‘pchiligimiz mansub an’anaviy tafakkur Shvars ertagidagi shahar aholisining ajdarhoga muhabbatini favqulodda eslatib yuborishi bilan odamdagi xavotirni kuchaytiradi, ba’zan.

Men bugungi kunlarimizda ham o‘tgan zamonlarni sog‘inadigan, hozirgi yangilanishlar va o‘zgarishlarga kek bilan qaraydigan, gugurtning bir tiyin bo‘lganini miflashtiradigan, erk va ozodlik to‘g‘risida so‘zlovchilarga “kasal”ga qaraganday munosabat qiladigan juda ko‘p odamlarni bilaman. Nafaqat oddiy kishilar, balki amaldor va ziyolilar orasida ham tarixning ortga “evrilishini” pinhona qo‘msaydigan yurtdoshlarimiz o‘ylaganimizdan ham ko‘proq topilishi mumkin. Va bu, hech shubhasiz, o‘zgarishi juda qiyin kechayotgan tafakkur tarzimiz bilan bevosita bog‘liqdir.

III

Yozayotgan maqolamga “inqilob” va “g‘urur” tushunchalarini asosiy g‘oyaviy tayanch sifatida tanlaganim bejiz emas. Zotan, Shavkat Miromonovich bugungacha amalga oshirgan tarixiy yangilanishlar mohiyati yetarlicha ochib berilgani yo‘q. Ayniqsa, bu harakatlardan maqsad jamiyat tafakkurini o‘zgartirish, yangi inson va chin ma’nodagi suveren mamlakatni bunyod etishga qaratilganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi.

Sabab? Sabab shuki, an’anaviy tashviqot vositalarimiz — rasmiy gazetalar, tele va radiokanallar eskicha, odamlarni bezdiradigan formatlardan hali oyog‘ini olgani yo‘q.

Davlat rahbari “milliy kontent” yaratish kerakligi haqida gapirganiga bir necha yil bo‘ldi. Xo‘sh, bu amalga oshdimi? To‘g‘ri, global tarmoq o‘zbek segmentida bugun bir qancha axborot manbalari ko‘zga tashlana boshladi. Ammo biz “jiddiy” deb qaraydigan ko‘pgina internet nashrlari ham hozircha faoliyat ko‘lamini Rossiya — Ukraina, AQSH — Isroil — Eron yoki dunyodagi boshqa geosiyosiy masalalar atrofida shakllantirishga harakat qilishayotir. To‘g‘ri, bu ham muhimdir. Ammo mamlakatimizda, Vatanda bo‘layotgan yangilanishlar va o‘zgarishlarni kim sharhlaydi, odamlarga, jamiyatimizga kim tushuntirib, yetkazib beradi?!

> **“Davlat rahbari “milliy kontent” yaratish kerakligi haqida gapirganiga bir necha yil bo‘ldi. Xo‘sh, bu amalga oshdimi? To‘g‘ri, global tarmoq o‘zbek segmentida bugun bir qancha axborot manbalari ko‘zga tashlana boshladi. Ammo biz “jiddiy” deb qaraydigan ko‘pgina internet nashrlari ham hozircha faoliyat ko‘lamini Rossiya — Ukraina, AQSH — Isroil — Eron yoki dunyodagi boshqa geosiyosiy masalalar atrofida shakllantirishga harakat qilishayotir. To‘g‘ri, bu ham muhimdir. Ammo mamlakatimizda, Vatanda bo‘layotgan yangilanishlar va o‘zgarishlarni kim sharhlaydi, odamlarga, jamiyatimizga kim tushuntirib, yetkazib beradi?!**

Ba’zan shunday bo‘ladiki, O‘zbekistonda bo‘layotgan fundamental o‘zgarishlar mohiyatini bizning matbuotdan ko‘ra chetdagi mediaplatformalar ta’sirchanroq yoritmoqdami degan gumonga ham borasan kishi.

Yaqinda shunday nashrlardan birida Qirg‘izistonning birinchi prezidenti ittifoq yiqilib, mintaqa davlatlari mustaqillikni qo‘lga kiritgan ilk yillar haqidagi o‘z fikrini bo‘lishdi. “...Rostini aytsam, 90-yillarda, prezident bo‘lganimda, menda bir shubha bor edi: qirg‘izlar bozor mexanizmlarini o‘zlashtirib keta oladimi, o‘zbeklar bilan raqobatlasha olamizmi deb ko‘p o‘ylanardim. Chunki mening nazarimda, bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz bilan o‘zbek birodarlar butun Markaziy Osiyoni egallab, boshqaradigandek edi. Sababi, ular sovet davridayoq bunga tayyor bo‘lgan. Ammo barchamiz Islom Karimovdan minnatdor bo‘lishimiz kerak. U kishi o‘zbeklarni dunyodan ajratib qo‘ydi. Shu bilan qirg‘iz va qozoqlarga imkoniyat yaratib berdi. Shuning uchun Qirg‘izistonda Islom Karimovga haykal o‘rnatgan bo‘lardim. U bizga yo‘l ochib bergani uchun qirg‘izlar bozor mexanizmlarini o‘zlashtirib oldi. Agar raqobat bo‘lib, Islom Karimov O‘zbekistonni ochib qo‘yganda edi, mana, hozir Mirziyoyev kabi dunyoga ochilganda edi, biz ular bilan raqobatlasha olmas edik”.

Albatta, Akayevning ushbu fikrlari bilan yuz foiz kelishib bo‘lmas, biroq masalaga xolis qarasak, u o‘sha yillardagi vaziyatni o‘zi ko‘rgan, ishtirokchisi bo‘lgan inson sifatida baholagan. Qolaversa, u o‘z xotiralari bilan bugun qo‘shni O‘zbekistonda bo‘layotgan inqilobiy o‘zgarishlarning qiymatini aniq qilib ko‘rsatib bergan.

Haqiqat shunday narsaki, ba’zan u odamni to‘g‘ri gapni aytishga undaydi. O‘zbekistonni tanqid qiladiganlar ko‘p hollarda “o‘tgan ma’muriyat faoliyatiga siyosiy baho berilmayotir” degan aybni yopishtirishga urinishadi. Tashqaridan qaraganda, bu gapda jon bor: mamlakatimiz bugun yangi yo‘lga kirdi. Prezidentimiz juda ko‘p bor aytganlaridek, O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas. Lekin har qanday siyosiy qadriyatlardan-da chuqurroq va ayni paytda qadrliroq bir ruhoniy boylik bor. Bu chin ma’nodagi o‘zbek xarakteri bilan bog‘liq jihat, deyishimiz mumkin. Kechagi kunni so‘kmay, xatolardan saboq chiqarish garchi bugungi kunlarimizda kamyoblashib borayotgan bo‘lsa-da, millatimizga xos xislat. Yaqin tariximizda juda ko‘p “polittexnologiya”lardan foydalandik. Jamiyatni shiorlarga burkadik, qo‘shnilar bilan ba’zan ochiq, ba’zan pinhona “san-man”ga bordik. Lekin nima bo‘ldi? Shu bilan baxtli bo‘lib ketdikmi?!

Eng yomon tomoni, o‘sha sovet zamonlarida respublikani boshqargan rahbarlarning birortasi bizning “targ‘ibot mashina”larimizdan “butun” chiqmadi. Hammasini “mayib” qildik. Nomlarini o‘chirib tashlashga harakat qildik va oxir-oqibat o‘zimiz uchun noqulay manzara yaratdik. Aslida, tarixni yozishni tarix ilmining o‘ziga qoldirgan ma’qul...

Mayli, hozir gap bu masalada emas. Men birovni qoralamasdan, turli darajadagi siyosiy mif-dushman personajlarni ijod qilmasdan ham ishlash va natija ko‘rsatish mumkin ekanini ifoda qilish uchun bu gap-larni aytdim.

Gap boshlaganim matbuotimiz, uning bugungi faoliyatiga qaytadigan bo‘lsak, tabiiyki, bir jihatni unutmasligimiz kerak: biz XXI asrda yashayapmiz. Dunyo juda tez o‘zgarmoqda. Biroq biz axborot siyosati masalasidagi ishlarimizni zamonga hamon moslab ololmayapmiz. Bugun ko‘pchilik gazeta va rasmiy telekanallar o‘z auditoriyasini yo‘qotdi, degan haqli e’tirozlarning asosiy sababi shu, menimcha. Buning esa davlat siyosatiga sezilarli ta’siri bor. Chunki bugun olib borilayotgan islohotlarni jamiyat va xalqqa yetkazib berishda asosiy vazifa ular zimmasida. Matbuot va uning bugungi professional saviyasi haqida gapirganda bir jihatni hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu ko‘proq biz tahlilga tortayotgan hadik bilan bevosita bog‘liq, nazarimda. Tepadan “imlov” kutish, yuqoridan kimdir aytmaguncha mus-taqil harakatdan tiyilib turish matbuotimiz uchun mudom eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Qolaversa, eski davr sinovidan o‘tgan an’anaviy va eng xavfsiz usul — quruq maqtov, madhiyabozligu, ura-urachilik ham uning o‘quvchi va tomoshabinlardan uzoqlashtirayotgan sabablardan biri bo‘lishi mumkin.

Nega buni gapiryapman, chunki matbuo-timiz, ayniqsa, rasmiy OAV mana shu o‘zgarishlar jarayonini chuqur his qilmayotir, nazarimda. E’tibor berib kuzatsangiz, bosh ekranlarimizda, katta gazetalarimiz sahifalarida faqat bir xil odamlar gapiradi, yozadi... Buning ustiga ritorika ham, “romantizm” ham o‘zgarmagan, 20 yil oldin qanday bo‘lsa, shunday... Tabiiyki, bunday sharoitda o‘quvchi-yu tomoshabinni ayblab bo‘lmaydi. Va shu sabab bizning “targ‘ibot siyosatimiz” jamiyatda ma’lum ma’noda o‘z aksilta’sirini ko‘rsatib kelmoqda.

Aslida, Prezident amalga oshirayotgan ishlar malakali mutaxassislar, analitiklar tomonidan mufassal sharhlansa, davlat rahbari ma’ruzalari, joylardagi chiqishlari, oddiy odamlar davrasidagi fikrlari yuqori intellektual doiralar tomonidan tahlil qilib berilsa, shuning o‘zi yetarli.

Hozir o‘rni bo‘lmasa-da, bir gapni aytaman. Bir necha yil oldin “uchar faollar”dan bir guruhi yig‘ilib, shaxsan Prezidentga maktub yo‘llashadi. Xatning mazmuni shundayki, siz davlatimizning yuksak mukofotlaridan biriga munosibsiz, ruxsat bersangiz, nomzodingizni komissiyaga kiritsak... O‘sha voqeadan keyin Shavkat Miromonovich “Atrofimda yurgan odamlarki mening qalbimda nima borligini tushunmasa, yana kimdan xafa bo‘lishim kerak”, degan edilar...

Haqiqatan, Prezidentimiz ko‘p bor aytganidek, rahbar uchun odamlarni rozi qilishdan yuksak mukofotning o‘zi yo‘q. U kishidan “Men oddiy odamlar, o‘g‘il-qizlarimiz yuz-ko‘zlarida quvonchni ko‘rsam, ularning bu hayotdan roziligini ilg‘asam, shuning o‘zi mening baxtim. Menga bundan ortiq mukofot ham, maqtov ham kerak emas” degan gaplarni juda ko‘p bor eshitganman va ushbu so‘zlarning qat’iy hamda samimiyligiga hech qachon shubha qilmaganman.

Holbuki, Shavkat Miromonovich ham sovet zamonlarini, ko‘kraklari mamlakatning eng yuksak orden-medallari bilan to‘lib ketgan o‘sha davr rahbarlarining ko‘pini ko‘rgan. Ammo bunday tarzdagi e’tirofdan o‘z xalqining roziligini, chinakam baxtu saodatini doim afzal bildi. U kishining boshqalardan farqi ham aslida shunda. Bu insoniy xarakter, odamlarga mehr hamda cheksiz samimiyat mening qalbimda doimo g‘urur tuyg‘usini uyg‘otib kelgan.

O‘z Prezidentidan G‘URURLANISH tuyg‘usi mening qalbimda shunday alangalangan.

IV

Xabaringiz bor, bu yil mustaqillik bayrami “Yangi Toshkent”da o‘tkazildi. Ba’zi birovlar bu harakatni davlat populizmi bilan bog‘lashdi. Menimcha esa, unday emas. Prezidentning bundan ko‘zlagan maqsadi ushbu taxminlardan yuz chandon yuksak va samimiyroq. Masalan, mamlakatning siyosiy bayramini yangi qurilayotgan shahar bag‘rida o‘tkazish faqat bir necha ma’muriy va ta’lim inshootlari hamda “Ginness rekordlar kitobi”ga kirgan favvorani foydalanishga topshirish yo ko‘z-ko‘z qilishdan iborat edi deb xayol qilish juda kulgili bo‘lar edi.

Davlat rahbari qurilayotgan ushbu shaharni nafaqat odamlar istiqomat qiladigan zamonaviy bir megapolis, balki yangi dunyo, yangicha tafakkur va ozod odamni ifodalovchi tarixiy bir g‘oya timsoli sifatida ko‘rishini men juda ko‘p bor sezganman. Mana, yaqinda u kishi bu yerga yana tashrif buyurdi hamda faollar, tijoratchi va investorlar bilan uchrashuvda “Yangi Toshkent — o‘zimizniki!” degan chaqiriqni o‘rtaga tashladi hamda shahar hududidan poytaxt tumanlari va viloyatlar uchun hozircha 100 gektardan yer ajratib berilishini ma’lum qildi. Sizningcha, bu nimani anglatadi?

Agar biz 100-120 yillik tariximizni o‘rganadigan bo‘lsak, millat sifatida juda kam hollarda jipslashganimizni ko‘rishimiz mumkin. Urug‘-aymoqchilik, mayda etnik ayirmachilik, mahalliychilik... Milliy traditsionalizmning bunday xavfli va zararli ko‘rinishlari biz bilan bugungacha “yashab” kelayotganini kim inkor etadi. Hozirgacha “shaharlik”, “qishloqlik” degan sifatlov turi yerdan oyog‘ini uzmaganini uncha zukko bo‘lmagan odam ham sezadi. Poytaxt markazchiligi haqida-ku, mutlaqo gapirmasa ham bo‘ladi. U bu borada, umuman, barcha masalada dominant maqomga ega edi. Toshkentda yashash, toshkentlik bo‘lish mamlakat fuqarosi uchun eng yuqori ijtimoiy rutba — oqsuyaklik maqomini berardi go‘yo. Mamlakat boshkentidan boshlangan ayni vertikal ma’muriy hududlar — viloyatlar bo‘ylab ham keng yoyilgandi. Xullas, markaz alohida ham madaniy, ham iqtisodiy jihatdan keng ustuvorliklarga ega edi. Holbuki, shunday bir sharoitda mamlakat aholisining yarmidan ko‘pi qishloqlarda istiqomat qilishardi...

Xo‘sh, nima deb o‘ylaysiz, ahvolning bundayligini, mamlakat aholisi, ya’ni xalq bir necha ijtimoiy tabaqalarga bo‘linib qolganini hech kim bilmasmidi?

Menimcha, buni hammamiz tushunardik, yaxshi bilardik. Faqat uzoq vaqt ko‘rmaganga oldik. Buning esa ko‘plab sabablari bor edi...

Bundan atigi o‘n yil ilgariyam matbuotda yoki elitar munozaralarda mamlakatdagi demografik vaziyat haqida juda kam gapirilardi. “Urbanizatsiya”, “aglomeratsiya” degan atamalar faqat ilmiy davralardagina ishlatilar, aholining uy-joy masalasi borasidagi diskussiyalariga qo‘shilishidan iloji boricha ehtiyot bo‘linardi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

INQILOBI bilan g‘ururlanaman?



> **Katta ishlarning shovqini ham, dovrug‘i ham o‘ziga yarasha bo‘ladi. Shu ma’noda gapiradigan bo‘lsak, bugun ushbu siyosatni tushunayotganlar ham, tushunmasdan yoki jo‘rttaga oyoq tirab talashayotganlar ham topiladi. Ba’zan Shavkat Mirziyoyev nima uchun poytaxtda buncha ko‘p uylar, bu ham yetmaganday, butun bir yangi shahar quryapti, nega viloyatlar markazlarida “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etayotir — bu yon-atrofga o‘zini ko‘rsatish — siyosiy populizm emasmi deydiganlar ham yo‘q emas oramizda.**

V

So‘nggi o‘n yillikda amalga oshirilgan va tez yodimizdan ko‘tarilgan dadil islohotlardan biri “propiska” tizimining bekor qilinishi bo‘ldi.

Aslida, “propiska” loyihasining rahnamosi Iosif Stalin edi. Grajdanlarni shaxsiy nazorat qilishni kuchaytirish va hokimiyat xavfsizligini ta’minlash maqsadida joriy qilingan ayni tartib deyarli 100 yil (ittifoq tanazzulidan keyin ham) davom etdi.

Insonlarni davlat inventariga aylantirib qo‘ygan bu mexanizmning 2017-yilga kelib bekor qilinishi, albatta, tarixiy jasorat, haqiqiy INQILOB edi. Biroq hozir gap bu haqda emas. So‘zimiz postkommunistik davr — mustaqillikdan keyin ham ushbu tartibning uzoq muddat amalda qolganida.

Xo‘sh, nega shunday bo‘ldi? Ko‘pchilik buni bugun ham yaxlit ma’noda xavfsizlik hamda siyosiy qudratni asrab qolish ambitsiyasi bilan bog‘laydi. Bo‘lsa, bordir. Ammo shu o‘rinda ko‘zdan panada qolayotgan yana bir omil ham mavjud. Buning manbai katta shaharlar, ayniqsa, poytaxt infratuzilmasiga tushadigan “bosim”dan qochish, demografik “sakrash” (e’tibor bering, 1990-yilda O‘zbekiston aholisi 20,2 million, 2000-yilda 24,5 million, 2010-yilda 28 million, 2020-yilda 33,9 million bo‘lgan. Bugun ushbu nufus 40 millionga yaqinlashdi) hamda aholining shaharlashuvga bo‘lgan tiyiqsiz ishtiyoqini jilovlab turishdek o‘ta nozik tektonik masala bilan bog‘liq edi deyishga yetarlicha asos topish mumkin.

Mazkur prinsiplarga ko‘ra, “propiska” masalasi sovet davrida markaz — Moskvadan nazoratga olingan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng Prezident farmonlari bilan bajonidil boshqarildi...

To‘g‘ri, aytganimizday mavzu bu emas. Ammo uning “oqibati” biz aytmoqchi bo‘layotgan hikoyaning mazmuniga juda aloqador. Shu ma’noda, gapiradigan bo‘lsak, ushbu masalada Shavkat Mirziyoyev zimmasiga olgan mas’uliyat faqatgina bargrang pasportlarimizning “yashash manzili” degan sahifasiga uriladigan muhrni mahv etishdangina iborat emasdi. Bu yopiq qozon ichidan chiqib, Vataningning istalgan manzilida ish va qo‘nim topish, kengroq ma’noda aytganda, ozod insondek yashash erkinligi degani edi. Ammo deyarli bir asr ta’qib qilingan va cheklangan bu erkinlikni ta’minlash oson ishmidi?!

Navbatdagi mulohazalarimiz ayni savoldan kelib chiqadigan saboq, oqibat va uning natijalari atrofida bo‘ladi.

VI

Bundan atigi o‘n yil ilgariyam matbuotda yoki elitar munozaralarda mamlakatdagi demografik vaziyat haqida juda kam gapirilardi. “Urbanizatsiya”, “aglomeratsiya” degan atamalar faqat ilmiy davralardagina ishlatilar, aholining uy-joy masalasi borasidagi diskussiyalariga qo‘shilishidan iloji boricha ehtiyot bo‘linardi.

Bunday “saranjom”lik ortida hali aytganimizdek, albatta, bir xavotir bor edi: aholining shaharlarga oqib kelishi va aglomeratsiyaga yo‘l ochish o‘z-o‘zidan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tug‘dirardi.

Keling, shu o‘rinda ushbu masalaning oqibatini ifodalovchi bir kichik iqtibosdan foydalanamiz. Prezidentimiz 2026-yil 25-fevralda urbanizatsiyaga bag‘ishlab o‘tkazgan yig‘ilishda poytaxt misolida gapirib shunday degan edi: “So‘nggi yillarda poytaxt iqtisodiyoti va aglomeratsiyasi jadal o‘sib, Toshkent shahrining doimiy aholisi 3,1 million nafardan oshdi. Shu bilan birga, 2045-yilga borib, shahar aholisi ikki barobardan ziyodga ortishi prognoz qilinmoqda. Bu esa urbanizatsiya jarayonlarini uy-joy, transport-logistika, muhandislik tarmoqlari hamda ijtimoiy infratuzilmaga tushayotgan yuklamaga mutanosib holda rivojlantirishni talab etadi”.

Ushbu fikrlar, o‘ylaymizki, o‘sha davr uchun o‘ta xavotirli bo‘lgan murakkab vaziyat manzarasini ancha oydinroq namoyon etishi mumkin.

To‘g‘ri, xolisona va insof bilan aytganda, shaharni zamonaviylashtirish, yangi markazlar va dahalar qurish haqida orzu-istaklar o‘tgan davrda bo‘lmagan deyish adolatdan emas. Biroq rejani tor siyosiy hujralardan hayotga ko‘chirish uchun odamda katta siyosiy iroda bo‘lishi kerakligi ham haq gap.

Men mustaqillikning ilk yillarida poytaxtning ikki tumanida rahbar bo‘lib ishlaganman. O‘sha yillari nafaqat qurilish qilish, hatto yorilgan ichimlik suv quvurini almashtirishga ham bitta ekskavator topolmay, bir necha kunlab sarson bo‘lganimni yaxshi eslayman. Shu bois, Prezidentimiz bugun nafaqat shahar, balki butun mamlakatimiz bo‘ylab olib borayotgan ishlar ko‘lamini ko‘rib, ochig‘i, u kishining g‘ayrat-shijoatiga tan beraman. E’tibor qiling, joriy yilda poytaxtning 12 ta tumani bo‘yicha 9 milliard dollar investitsiya jalb qilish rejalashtirilgan. Bu o‘z-o‘zidan bo‘ladi, deb o‘ylaysizmi?! Yoki mana bu raqamlarga bir ahamiyat qarating: statistikaga ko‘ra, o‘tgan o‘n yilda aholimiz 8 millionga ko‘paydi. Ayni shu davr ichida 650 ming oila yangi uy-joyli bo‘ldi...

Men yuqoriroqda bugun mamlakatdagi bunyodkorlik va bu o‘zgarishlarning odamlar ongu tafakkuriga ta’siri, qolaversa, ijtimoiy siyosat va mafkuralar haqida kengroq to‘xtalaman degan edim. Haqiqatan, insonning yashash tarzi uning dunyoqarashiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bunga yaqin tariximizdan ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin. O‘tgan kunlarimizga qaraydigan bo‘lsak, bizda qurilish, xususan, aholi uchun turar joylar

> **Ochiq aytganda, “inqilob” so‘ziga bizda uzoq yillar muxolif atamadek qaralgan. Garchi rasmiy to‘siq bo‘lmasa-da, ayniqsa, siyosiy diskursda bu kalima (bir-ikkita istisnolarni hisobga olmaganda) elitar narrativ va irod qilinadigan nutqlarda deyarli uchramasdi. Shuningdek, jamoatchilik orasida ham uni qo‘llash va ishlatishda hadik bor edi. Va ehtimolki, ayni sabablar uni o‘zining polisemantik xususiyatini yo‘qotib, yakka ma’noli “ot”ga aylanib qolishiga olib keldi. Masalan, sovetlar zamonida ushbu istilohga faqat bir o‘rinda — “Qizil oktyabr”ga nisbatan murojaat qilish keng istiqbolli sanalardi: ko‘krakni to‘ldirib, “Buyuk Oktyabr inqilobi” deyish sovet grajdanida nafaqat ma’naviy-mafkuraviy yetuklikni, balki tuzumga bo‘lgan sadoqatni ham anglatardi.**

qurilishi nisbatan tizimli ravishda “qayta qurish” yillarining oxiriga qadar davom etdi va to‘xtadi. So‘ngra “Bankovskiy dom” degan nom ostida poytaxtning ba’zi dahalarida uylar qurildi. Ammo ularni olishga oddiy odamlarning qurbi yetmasdi...

Ochig‘i, aytib o‘tganimizdek, asl muddaodan qat’i nazar qurish, obod qilish, atrofni “gulzorga aylantirish” barcha zamonlarda ham aktual bo‘lgan. Sovet davrida ham bu borada bir nechta yirik davlat dasturlari va qurilish siyosati yo‘nalishlari bo‘lgan. Masalan, “kommunal kvartiralar” (ular bir ro‘zg‘or sifatida emas, balki bir nechta oila yoki shaxs tomonidan umumiy foydalaniladigan xonadonlardir. Bunday uylarda har bir oila alohida xonada yashagan, oshxona, hojatxona, hammom va yo‘lak kabi joylardan esa birgalikda foydalangan) degan bugun ko‘pchilikning esidan chiqib ketgan tushuncha o‘sha siyosatning bir qismi hisoblanadi.

Ideologiya, real turmush va bu omillarning odamlar tafakkur tarziga ta’siri, uni shakllantirishdagi o‘rni haqida gapirar ekanmiz, ayni nuqta sovet davri maishiy hayotining ijtimoiy eksplikatsiyasi (mohiyatini ochib berish)ga yaxshi misol bo‘la oladi, deyishimiz mumkin. Negaki kommunal kvartira — faqat uy-joy yetishmovchiligining oqibati emas, balki davlat siyosati, shaharsozlik va xalqning kundalik turmushini bir nuqtada birlashtirgan tarixiy hodisa ham edi. Va yana bunga turli madaniyatlaru urf-odatlarni yagona bir “qaynatuvchi qozon”ga solib, yagona xalq — sovet kishisi fenomenini yaratishga bo‘lgan urinish hosilasi deb qarasak ham ko‘p xato bo‘lmaydi. Chunki bunday yashash tarzi fuqarolarda “shaxsiy erkinlik”, “ozod fikr” kabi hukmron mafkuraga yot tushunchalar shakllanishini cheklar, barchani bir g‘oya yo‘lida birlashtirishga yaxshigina ko‘maklashardi.

“Kommunalka”lardan keyin ayni jabhadagi katta siyosatga 1957-yillarda start beriladi. Aynan o‘sha yili butun mamlakat bo‘ylab uy-joyga bo‘lgan talabni qisqa muddatda kamaytirish maqsadida namunaviy loyihalar asosida ommaviy tarzda ko‘p qavatli, nisbatan arzon uylar qurish bo‘yicha KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining “SSSRda uy-joy qurilishini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori chiqariladi.

Tarixda ko‘proq “Xrushyovka uylari” degan nom bilan mashhur bo‘lgan ushbu tajriba haqida ham ajabtovur hangomalar bor. Eng muhimi, ularning birortasi to‘qima emas. Mana, shulardan biri: sovet zamonida odamlar nima uchun uy devoriga hashamdor gilam osishganini hech o‘ylab ko‘rganmisiz?! Tashqaridan qaraganda, bu shunchaki bir moda yoki estetik qoloqlikday tuyulishi mumkin. Ammo unday emas. Sovet odamlarining boylik ramzi hisoblangan gilamlarning devorlarga qoqilishi muayyan maqsadni ko‘zlab urfga aylangani to‘g‘risida turli gaplar tarqalgan.

O‘tgan asrning 50-60-yillarida katta shaharlarda aholini turar joy bilan tezroq ta’minlash maqsadida arzon va oddiy loyiha bo‘yicha yoppasiga qurilgan sifatsiz “xrushyovka”larda bu buyum odamlarni ko‘zga ko‘rinmas “dushman”lardan himoya qilardi. Sababi, xonadon devorlari shu darajada yupqa ediki, hatto uydagi shivir-shivir ham qo‘shniga bemalol eshitilar va bu shaxsiy hayot degan tushunchaga to‘g‘ridan to‘g‘ri daxl qilardi.

Gilam esa bunda tovush yutgich vazifasini o‘tagan. Qolaversa, momiq jundan to‘qilgan nodir matoh nam va yupqa beton devor osha tashqaridan sizib kiradigan sovuqdan himoyalovchi vosita ham bo‘lgan. Xullas, ko‘pchiligimizning ko‘zimiz o‘rganib ketgan devordagi gilam oddiy dekor emas, balki “quloq” va ayozdan uy egasini himoyalovchi omil ham bo‘lgan...

Albatta, siz ushbu kontekst orqali nimaga ishora qilinayotganini yaxshi tushunib turibsiz. Ha, masalaga chuqurroq yondashsangiz, bu safarbarliklardan maqsad inson baxtu saodatidan ko‘ra ko‘proq hukmron g‘oyaga sadoqat ko‘rsatish bo‘lganini anglaysiz. Qolaversa, ikki qutbli dunyoda sotsializm va kapitalizm o‘rtasidagi tizimlararo raqobat ham ko‘p ko‘zbo‘yamachiliklarga “doya” bo‘lgan. Biroq tarixni qarasangiz, katta siyosatda bu tajriba anchadan buyon mashhur amaliyot ekanini ko‘rishingiz mumkin.

VII

Siyosatchilar tilida “Potyomkin qishloqlari” degan uchqur ibora bor. Uning kelib chiqishi Chor Rossiyasi tarixi bilan bog‘liq. 1783-yili Qrim rasmiy ravishda imperiya tarkibiga qo‘shib olingach, imperatritsa Yekaterina II yangi periferiyalar bilan tanishish maqsadida mamlakat janubiga yo‘l oladi. Yo‘l-yo‘lakay foytun tuynugidan boqarkan, u o‘tlab yurgan zotdor mollar podasi, otlar uyuri, pichan g‘aramlari yoniga taxlangan mo‘l hosil — don to‘la qoplarni, dalalarda esa ko‘zlarida baxt uchquni chaqnab turgan, bilaklari kuch-g‘ayratga to‘la erkagu ayollar, balalayka sadosi ostida shodon qiyqirishib raqsga tushayotgan yoshlarni ko‘rib quvonadi. Tabiiyki, to‘kinlik va farog‘atchilikni ifodalovchi bu manzara uni zavqlantirgan...

Biroq bularning barchasi illyuziya — hazrati oliyalarining kayfiyatini chog‘ qilish, qolaversa, xorijlik “do‘st”larning hayratini oshirish uchun o‘ylab topilgan nayrang edi: qosh qorayib karvon tunash uchun to‘xtagan mahal “shodumonlik kartinasi” — uyurdagi otlar, mol-holu don o‘rniga qum bilan to‘ldirilgan qoplar va mehnat qilayotgan bashang kiyimli “qishloq odamlari” ustalik bilan yangi manzillar bo‘ylab “joylashtirilardi”...

Bu ajabtovur hangomaning muallifi esa knyaz G.Potyomkin edi... Shubhasiz, buni safarda podshoga hamrohlik qilgan ziyrak elchilar sezishgan. Va ayni hodisa “Potyomkin qishloqlari” atamasining paydo bo‘lishiga, uning soxta farog‘atchilik, ko‘zbo‘yamachilikni ustamonlik bilan ifodalovchi badiiy vosita — metaforik obrazga aylanishiga turtki bergan. Albatta, gap hozir bu voqea bo‘lgan yo bo‘lmaganida emas, balki ushbu qochirim oradan uch yuz yilga yaqin vaqt o‘tib ham o‘z konstanta — asl qiymati va badiiy ifoda ko‘lamini yo‘qotmay qolayotganida.

Xarakteriga ko‘ra, o‘ta elitar bo‘lgan ushbu kinoya bugun ham xalqaro siyosiy doiralarda juda keng va faol qo‘llanilayotgan ekan, demak, bu tajriba mudom “iste’mol”dan chiqmagan. Bunga bir misolni sobiq ittifoq yillari kechgan hayotimizdan keltirdim. Biroq siyosiy qadriyatlar ancha yashovchan bo‘ladi deganlaridek, eski zamondagi “illyuziyaga ishqibozlik” istiqloldan keyingi davrga ham ko‘chib o‘tdi. Katta yo‘llar, ayniqsa, mehmonlarning ko‘zi tushishi mumkin bo‘lgan kengliklar bir xil tusdagi “tipovoy loyiha”larga to‘ldirildi va bu “izchil islohot” yangi hayot tarzi sifatida jamiyatga taqdim etildi. Bundan tashqari, biz keng va yaydoq dalalar bag‘rida ikki-uch qavatli o‘quv binolari, vrachlik punktlari, madaniyat maskanlari qad ko‘tarishiga ham hayron bo‘lmay qoldik. Chunki 10-20 chaqirim atrofda odam yashamaydigan bunday maskanlar mehmonlar o‘tadigan katta trassalardan juda ravshan ko‘zga tashlanib turishini yaxshi anglardik...

Mayli, qochiriq o‘z yo‘liga. Biroq real fakt shu ediki, bu ishlar xuddi yaraning ustini doka bilan bekitishdek bir gap, ya’ni nari borsa, zaxm ko‘zni chalg‘itib turardi...

Bu boradagi mutlaqo shaxsiy bo‘lgan fikrimni ochiq aytaman, ayni konsepsiya o‘tgan davr ijtimoiy siyosatining yutug‘i bo‘lishi mumkin edi. Chunki niyat, yo‘nalish bor edi. Ammo bizga ayon va noayon turli sabablar ushbu dasturni o‘tgan ma’muriyatning “ijtimoiy-siyosiy vitrina”siga aylantirib qo‘ydi.

Hozir esa sarlavha, aniqrog‘i, asosiy planga chiqarilgan so‘z — “Inqilob” haqida qisqacha gapirmoqchimiz. Zotan, bugun bunga zarurat bor. Bizning kolonial, postkolonial va dekolonial uchburchak ichidagi tafakkur tarzimizni tahlil qilishda ayni terminga “munosabatimiz” ijtimoiy hodisa sifatida muhim o‘rin tutadi.

VIII

Ochiq aytganda, “inqilob” so‘ziga bizda uzoq yillar muxolif atamadek qaralgan. Garchi rasmiy to‘siq bo‘lmasa-da, ayniqsa, siyosiy diskursda bu kalima (bir-ikkita istisnolarni hisobga olmaganda) elitar narrativ va irod qilinadigan nutqlarda deyarli uchramasdi. Shuningdek, jamoatchilik orasida ham uni qo‘llash va ishlatishda hadik bor edi. Va ehtimolki, ayni sabablar uni o‘zining polisemantik xususiyatini yo‘qotib, yakka ma’noli “ot”ga aylanib qolishiga olib keldi. Masalan, sovetlar zamonida ushbu istilohga faqat bir o‘rinda — “Qizil oktyabr”ga nisbatan murojaat qilish keng istiqbolli sanalardi: ko‘krakni to‘ldirib, “Buyuk Oktyabr inqilobi” deyish sovet grajdanida nafaqat ma’naviy-mafkuraviy yetuklikni, balki tuzumga bo‘lgan sadoqatni ham anglatardi.

Albatta, bu tushunarli. Biroq oradan vaqtlar o‘tdi, e’tiqod va qarashlar o‘zgardi hamki “Inqilob” xoh yozma, xoh og‘zaki nutqlarda bo‘lsin, favqulodda “ommalashib” ketmadi, balki iste’mol doirasi yanada torayib, o‘zining “tektonik” xususiyatini saqlab qoldi. Bir so‘z bilan aytganda, mustamlakachilik madaniyati va siyosiy muhitida “toblangan” bu so‘z erkinlik va mustaqillik zamonlariga ham o‘z merosi bilan “ko‘chib” o‘tdi. Ayniqsa, it egasini tanimay qolgan o‘tgan asrning 80-yillaridagi “qayta qurish va oshkoralik” hamda 90-yillardagi “milliy turg‘unlik” zamonlarida u badniyatli va hukmron siyosatga yot kayfiyatli odamlar ishlatadigan buzmakor so‘z(tushuncha)dek malakalandi...

Biroq xatolik so‘zda edimi yoki bizning siyosiy madaniyatimiz va tafakkurimizda?!

Mohiyatan o‘ta ritorik bo‘lgan ushbu savol, yuqorida aytganimizdek, jamiyatimiz, turmushimiz va ongimizda bugun kechayotgan o‘zgarishlarga javob qidirishga chorlashi bilan ham nihoyatda qiymatli deb o‘ylayman. Yopiq jamiyat va biqiq muhit nafaqat insonni, balki so‘zlar va tuyg‘ularni ham jilovlagan davrlarni ko‘rdik. Misol uchun bugun anglayapmizki, hozir muhokama qilayotganimiz terminning yondoshi faqat “Oktabr” yoki “buzg‘unchilik” emas ekan.

O‘zi umuman, izohli lug‘atlarda inqilob (arabcha — o‘zgarish) so‘ziga shunday ta’rif berilgan: 1. ...jamiyat hayoti va uning sohalarida bo‘ladigan o‘zgarish, tubdan o‘zgarish. 2. Bir ijtimoiy tuzumni boshqasi bilan almashtirish orqali bo‘ladigan o‘zgarish; to‘ntarish...

Biz uzoq vaqt mobaynida ushbu tasnifning faqat ikkinchisini qabul qildik. Birinchi tushunchaga tayanib yashash, hayotimizni shu maslak atrofida barpo qilishga siyosiy irodamiz ham, kuch-qudratimiz ham yetmadi, menimcha. Masalan, “yangi uy qurmay eskisini buzma” deganga o‘xshash shiorlar, (shiorlar bizda alohida tadqiq etishga arziydigan mavzu) sizningcha, nimaga ishora qilar edi?! Ha, u tizimni o‘zgartirmay, eskiligicha saqlab qolishni nazarda tutardi. Bunday sharoitda, albatta, har qanday inqilob haqida gapirish nafaqat yoqimsiz, balki favqulodda xavfli edi. Chunki qalbimizdagi “qurmay turib buzmaslik” istagi o‘ta skepsis — shubhali ekanini o‘zimiz ham sezib turardik.

Favqulodda bu anglov esa uning ortidan yana boshqa gajakdor shiorlar to‘qishga bizni majburladi. Chunki ichimizdagi shubha keng yoyilib ketmasligi, oshkor bo‘lmasligi kerak edi. Ushbu mulohazani oddiy misol bilan sharhlab beradigan bo‘lsam, masalan, “...kelajagi buyuk davlat” degan xitob bilan “Xalqimiz bugun baxtli yashashi kerak” orasida juda katta va o‘ta nozik tafovut borligini ko‘rishimiz mumkin.

Xullas, inqilob istilohining “ozod” etilishi va keng iste’molga kirishiga endilikda tarixiy zarurat bor. Agar siz bugun Shavkat Mirziyoyev amalga oshirayotgan buyuk o‘zgarishlarni bundan-da chuqurroq ifodalab bera oladigan boshqa bir atama topsangiz, men bunga roziman. Zotan, men ilgari mumkin bo‘lmagan, iloji yo‘q deb qaralgan imkoniyatlarning birpasda oddiy hodisaga aylanib qolishining o‘zi ham qaysidir ma’noda inqilob belgisi deb o‘ylayman. Va yana so‘zlar, tushunchalar va tuyg‘ularga yangicha mazmun baxsh etish ham bir INQILOBDIR! Kechagina yoppasiga og‘zi tikilgan jamiyatning “tilga kirishi” ham ayni hodisaning o‘zginasidir...

IX

Katta ishlarning shovqini ham, dovrug‘i ham o‘ziga yarasha bo‘ladi. Shu ma’noda gapiradigan bo‘lsak, bugun ushbu siyosatni tushunayotganlar ham, tushunmasdan yoki jo‘rttaga oyoq tirab talashayotganlar ham topiladi. Ba’zan Shavkat Mirziyoyev nima uchun poytaxtda buncha ko‘p uylar, bu ham yetmaganday, butun bir yangi shahar quryapti, nega viloyatlar markazlarida “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etayotir — bu yon-atrofga o‘zini ko‘rsatish — siyosiy populizm emasmi deydiganlar ham yo‘q emas oramizda.

Bunday kishilarni yaxshi tushunaman va bundan xafa bo‘lishning keragi ham yo‘q. Men, garchi Prezidentimiz hech qayerda ochiq-oshkora aytmagan bo‘lsalarda, qalblaridagi orzu-istakni juda yaxshi bilaman. Mening xalqim bu yorug‘ dunyoda hech kimdan kam emas, biz jahonga ma’rifat, davlatchilik an’analarini o‘rgatgan xalqmiz va bundan keyin ham saflarning boshida bo‘lishimiz kerak degan ulug‘ g‘oya u kishining qalbini mudom cho‘g‘lantirib turadi.

Zamonaviy uylar, ko‘chayu xiyobonlar bugun nafaqat shaharu qishloqlarimiz ko‘rkini, balki odamlarimiz tafakkurini ham o‘zgartirayotganini barchamiz juda yaxshi anglab turibmiz. Birgina “Yangi Toshkent”ning qurilishi qanchadan-qancha muammoga yechimligini, davlatchilikni yangi o‘zanga solish, erkin va ozod millat yaratish yo‘lidagi inqilobiy harakat ekani haqida hali tarix o‘z so‘zini aytishiga ishonaman.

O‘tmishga qarasangiz, ulusni bir mushtdek jamlagan, davlatini o‘z azmu shijoati bilan qudratli qilgan sultonlar uncha ko‘p emas. Ulardan ushbu ta’rifga eng munosiblaridan biri Sohibqiron Temur edi. Umrining katta qismi ot ustida o‘tgan Temur el ma’murchiligi, yaratuvchilik borasida nafaqat milliy tariximiz, balki kishilik jamiyatida o‘chmas iz qoldirgan jahongirlardan biridir. Bugun insoniyat tan oladigan “Temuriylar davri renessansi” aynan Sohibqiron porloq shaxsiyatining mevasi edi. Samarqandni “yer yuzining sayqali” qilish ishtiyoqi ham aynan u kishining yuragini cho‘g‘dek qizdirgan va bu ish uchun u o‘z poytaxtiga jahonning eng mohir me’morlari, ustalarini jamlagan edi.

Xalqimizda “Oqqan daryo oqmay qolmas” degan hikmat bor. Uning ma’nosini barchamiz yaxshi tushunamiz. Hozir Amir Temur shaxsiyati haqida so‘zlay turib, xayolimda ushbu naqlga ma’nodosh yana bir fikr bosh ko‘tardi: millatning toleidagi cho‘g‘ ko‘milishi, qo‘ri qaytishi mumkin, ammo hech qachon batamom so‘nmaydi. Vaqt kelib, bu olovni yuragi Vatan va Xalq ishqida yonadigan yovqur bir farzand kelib, yana alangalatadi.

Bugun nafaqat poytaxt, balki mamlakatimizning barcha go‘shalarida olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini ko‘rib, odam tarixning ulug‘ murabbiy ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Masalan, birgina “Yangi Toshkent” orzusi global dunyoda tan olingan Dubay, Seul, Syurix, Kopengagen, Shanxay kabi faqatgina postindustrial yoki “yangi urbanistik sivilizatsiya markazi” emas, balki yuzlab yillar mustamlakachilik azoblarini ko‘rgan, o‘zini, o‘zligini deyarli yo‘qotib qo‘yayozgan Vatanimiz va Millatimiz sha’ni, or-nomusini oyoqqa qo‘yish, o‘tmishda buyuk bo‘lgan xalqimizning shonu shuhratini qayta tiklashga qaratilgan jasoratli qadam ekani bilan g‘oyatda ahamiyatlidir.

Va Prezidentimiz muhtaram Shavkat Mirziyoyev qalbidagi ayni mardonavorlik, millatparvarlik hamda vatanparvarlik yuragimni cheksiz g‘urur va iftixorga to‘ldiradi.

Biz mudom Siz bilanmiz, Mening Prezidentim, deya faxrlanamiz!

Ziyolilar birlashsa, ko‘ngillar yaqin bo‘lsa, yo‘llar qisqaradi. Iste’dod egalarining oydin safarlardagi yorqin faoliyatlari madaniyat, ma’rifat va san’atning oltin zanjirlari bo‘lib ellarni yaqinlashtiradi, hamjihatlik va hamkorlik esa vatan ravnaqiga xizmat qiladi!

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 27-oktabr, 222-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Taassurot







MA’RIFAT YO‘LIDA ZIYOLILAR FORUMI



Sayyora TO‘YCHIYEVA,
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi, professor

Muloqot qalblarni birlashtiradi

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan hamda “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” bosh g‘oyasi asosida o‘tkazilayotgan “Mustaqillik to‘yi”ning navbatdagi manzili qardosh Turkiya bo‘ldi va u yerda “Bir ildiz, bir ma’rifat: O‘zbekiston — Turkiya do‘stligi ko‘prigi” mavzusida olimlar va ziyolilar forumi tarzida davom etdi.

Bir ildizdan tarqalgan, bir buloqdan suv ichgan, taqdiri va kelajagi chambarchas bog‘liq ikki xalqning maqsadlari yagona, orzu va intilishlari hamohangdir. Zotan, bizni mushtarak til, o‘zaro uyg‘un an’ana va qadriyatlar, azaliy do‘stlik hamda asrlar davomida shakllanib, mustahkamlanib kelayotgan madaniy aloqalar bog‘lab turadi.

Turkiya janubida joylashgan, chor tarafdan O‘rtayer dengizi, Suriyaning Halab viloyati hamda G‘azantep va Adana viloyatlari bilan tutashgan Hatay shahri markazidagi Mustafo Kamol universiteti jamoasi va talabalari bilan suhbat har ikki xalqning tarixiy ildizlari, mushtarak ilmu ma’rifati, til va madaniyat uyg‘unligi borasidagi ilmiy bahslar va ijodiy muloqotlar bilan boshlandi.

Hatayning Ovakent mahallasidagi uch yuz vatandoshimizga “Bir dasturxon — ikki qardosh xalq” shiori ostida dasturxon yozilib, o‘zbekcha osh tortildi. Mahalla raisi Abdulvahob Yunusning so‘zlaridagi samimiyat va mehr bunday ifoda etiladi: “Zilziladan jabr ko‘rmagan odam qolmadi, bolalarimizning o‘qishi, ish faoliyatimiz to‘xtadi, hamma birdek g‘amgin bo‘lib qoldi. Qish kuni emasmi, kiyimlarimizda, oziq-ovqatda ham taqchillik bo‘ldi. Shunda O‘zbekistondan katta yordam keldi, ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi, quruvchilaru mutasaddilar yana ravon hayot tarzimizga qaytishimizga ko‘maklashdi. Eng muhimi, vatandoshlarimiz bizni uyli qildi, bundan ortiq baxt bormi? Haligacha eslasam, ko‘zimga yosh keladi. Tibbiyot asboblarini ko‘tarib bizga yordamga shoshgan, bolalarimizga, hatto, o‘qish uchun kitobu daftargacha yetkazgan vatandoshlarimizning yordamlarini qanday aytmayin? Ming rahmat sizlarga!”.

Hatay hokimi Xayriddin Quyunkuyur zilziladan keyingi uch yil ichida shahar qaytadan tiklangani, bunda O‘zbekiston xalqining ham katta hissasi borligi haqida gapirar ekan, bunday deydi: “Qiyin kuningda yelkangdan tutib turgan do‘stingning qo‘li katta madad bo‘lar ekan. 2023-yil fevral oyida Turkiyada yuz bergan kuchli zilzila oqibatlarini bartaraf etish uchun O‘zbekiston xalqi o‘sha og‘ir kunlarda Hatay ahli bilan ruhan yaqin va bahamjihat bo‘ldi. O‘zbekiston tashabbusi bilan Hatayning Arsuz tumanida 306 ta xonadondan iborat turar joylar barpo etildi va bu maskanga “O‘zbekiston mahallasi” nomi berildi. Keng va shinam ko‘chalar, bog‘lar, bolalar maydonchalari, maktabu bog‘chalar, Samarqand va Toshkent nomlari berilgan ko‘chalar, Buxoro jome masjidi — bularning barchasi umumiy qadriyatlarimizning bebaho ifodasi bo‘lib ko‘zni quvnatadi. Shahar insonni tarbiyalaydi, inson shaharni go‘zallashtiradi”.

U shunday deya bizni O‘zbekistonning “Do‘stlik” bog‘i sari chorlaydi va faxr bilan qo‘shib qo‘yadi: “Shahrimiz Turkiyaning 81 shahridan 31 tasigagina berilgan “katta shahar” maqomiga ega. Kelganingizdan mamnunmiz, ota yurtimiz Buxoro va Samarqandni ko‘rgandek bo‘ldik”.

Osmonga suyanib turgan Toros tog‘ tizmalari osha quyoshning zarrin nurlari hozirgina yoqqan yomg‘ir tomchilarini allalar ekan, taniqli maqom ustasi Aziz Rajabiy ijrosida tanbur nolalari jo‘rligida yangragan Navoiy satrlari davraga jon kiritadi:

Qaro ko‘zim, kelu mardumlig‘in
endi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi
vatan qilg‘il...

Ilmu fan, ijod poytaxti

Anqara ijtimoiy fanlar universitetidagi anjuman O‘zbekistonda istiqlol yillarida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, yangi edi. Anqara ijtimoiy fanlar universitetidagi uchrashuv uning “Men tanigan O‘zbekiston” asarining turk tilidagi nashri taqdimoti bilan boshlandi. Muallifning satrlarida bunday e’tiroflar tilga olingan: “Xo‘ja Ahror Valiy, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslarni, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Zamaxshariy kabi ulug‘ ulamolarni, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Yusuf Hamadoniy, Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf pirlarini, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi jahonshumul olim va faylasuflarni yaqindan bilish shartdir”.

Ayniqsa, muallifning “Turkiston jadidchilik harakatining buyuk namoyandalaridan biri, shoir, adib va yozuvchi Abdulhamid Cho‘lponning mashhur hamda yuraklarni larzaga soluvchi “Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?” she’ri bu muqaddas zaminga mansub va u har bir inson qalbida chuqur iz qoldirgan. U qisqa umr ko‘rganiga qaramay, yaratgan asarlari, boshdan kechirgan azob-uqubatlari, ta’qiblar, zulmlar va shahidlik qismati bilan xalq xotirasidan abadiy joy oldi. U bu zaminning hech qachon so‘nmaydigan, porloq cho‘lpon yulduziga aylandi” degan bitiklari kitobxonni yaqin tarixga qaytaradi va faxr bag‘ishlaydi.

Muallif Cho‘lponning muqaddas xotirasiga va “Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?” degan tarixiy savoliga chuqur ehtirom ko‘rsatgan holda yangi O‘zbekistonning Osiyo osmonida porlayotgan yulduz o‘laroq yuksalib borayotganiga bo‘lgan ishonchini quyidagi misralar bilan ifoda etadi:

Go‘zal Cho‘lpon, qara, bir zamon keldi,
Har bir inson qalbi quvonchga to‘ldi,
Yoshlar baxtli hayot sari yo‘l oldi,
Turkistonga boq — bir yulduz tug‘ildi,
Nomi yangi O‘zbekiston bo‘ldi.

Imzolangan hamkorlik memorandumida ijtimoiy fanlar yo‘nalishidagi aloqalarni o‘zbek va turk olimlarining ilmiy muloqotiga asoslanadigan qo‘shma konferensiya va forumlar tarzida davom ettirishga kelishib olindi.

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Bekzod Abdirimovning xulosalari ham qiziqarli. Olim o‘z tadqiqotlarini turk zaminida olib borayotgani, Jaloliddin Manguberdining harbiy merosini o‘rganish asnosida Silvanda uning dafn etilgan joyini aniqlashga qaratilgan izlanishlari, Onado‘lidagi xorazmliklar (horzumlular) tarixi, qadriyatlari va tarixiy xotirasini o‘rgangani haqida so‘zladi. U qishloqlarda manba izlagani va manbadan tashqari yana bir muhim narsa — ruhiy yaqinlikni topgani, nomlarda, xotiralarda, mehmondo‘stlikda, insonlarning bir-biriga munosabatida tanish bir ruhni his qilganini ta’kidladi. Mamlakatning 81 viloyatidan 12 tasida bo‘lib, Shonliurfadan Istanbulgacha bo‘lgan elchalar, qishloqlar va mahallalarni kezgan tadqiqotchi 100 yil oldin jadid bobomiz, oydinimiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning Istanbul manzarasiga mahliyo bo‘lib yozgan “Qaragan ila to‘ymaysan... Istanbul manzarasi favqulodda bir manzaraki, Ovro‘po va amriqoyilar-da muning oshiqidur. Biz-da albatta!” satrlarini bunday sharhlaydi:

“Oddiy bir o‘zbek olimi sifatida 1453-yilda fath etilgan Konstantinopolning yoriq devori ostida o‘tirib, bir piyola turk choyini ichishdan baxtiyorlik tuyaman. Sharqiy Yevropaning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy markazi bo‘lgan bu diyorda, yana ham quvonchlisi, bir vaqtning o‘zida 5 ming kishiga xizmat ko‘rsatadigan, 4 million bosma nashr, 120 million elektron fayl, 28 ming qo‘lyozma manbaga ega dunyoning eng ulkan kutubxonalaridan biri — Anqara xalq kutubxonasida tadqiqotlarimni davom ettirmoqdaman”.

Tadqiqotchining so‘zlarini tinglab, Qozizoda Rumiyning Samarqandda mudarrislik qilgani, Ali Qushchi so‘nggi yillarini Istanbulda o‘tkazgani, Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Said Ahroriy kabi jadid bobolarimiz Turkiyada ta’lim olgani xayolimizdan o‘tadi. Zamonning ma’rifatparvarlari va oydinlari shijoati hamda ilmu fan muhiti Toshkent bilan Anqarani, Samarqand bilan Konyani, Buxoro bilan Bursani, Xiva bilan Edirneni bog‘lagani, hozir Istanbulda Abu Rayhon Beruniy nomidagi universitet faoliyat yuritayotgani, Turkiya kitob fondlarida Alisher Navoiy asarlarining 100 dan ortiq qo‘lyozmasi saqlanayotganining xosiyati ko‘nglimizni to‘lqinlantiradi.

Madaniy muloqotda adabiyot inson ruhiyatining ko‘zgusi, xalqning qalbi va milliy o‘zligi ekani, bu jarayon Alisher Navoiy va Yunus Emrodan boshlangan ma’naviy merosning yorqin ko‘rinishlarida davom etayotgani, Nobel mukofoti sohibi O‘rxon Pamuk asarlarini o‘zbek kitobxonlari sevib o‘qiyotgani ham quvonchlidir. Turkiya yozuvchilar uyushmasida imzolangan “Mehr qanotlarida” ijtimoiy loyihasi o‘zbek va turk bolalar adabiyoti uchun yangi nomlarni, yangi asarlarni kashf etish imkoniyatini beradi. Turkiya yozuvchilar uyushmasi raisi, professor Muhammad Enes Qal’aning ta’kidlashicha, ushbu ijtimoiy loyiha nodir qadriyatlarning bolalarcha talqini, mehru oqibatning sharqona e’tirofi sifatida tortiq qilinadi. Eng muhimi, ikki el farzandlari bolalar adabiyotining yosh mualliflari bilan yaqindan tanishadi, jamlanmaga kiritilgan asarlar mualliflari ishtirokida muloqot tadbirlari bo‘lib o‘tadi.

“Shoirlar ezgulikning elchilaridir”, deyishadi. Mening turk tilida chop etilgan mo‘’jazgina “Hasret Türküsü” (“Sog‘inch qo‘shig‘i”) kitobim ham ziyolilar forumining adabiyot muhiblari uchun sovg‘a bo‘lganidan baxtiyorman. Tarjimon Ma’rufjon Yo‘ldoshev tomonidan turk tiliga o‘girilgan she’ru hikoyalarim jamlangan ushbu asar haqida so‘zlaganimda, adabiyotning ko‘ngillarga tarjimasi ezgulikdan iborat bo‘lmog‘i naqadar sururli ekanini o‘zbek shoirasi va olimasi sifatida chuqur his qildim.

Oriflar huzurida

Har birimizning ongu shuurimizni, qalb va kayfiyatimizni buyuk allomalarimizning o‘tli va bezavol satrlari bir lahza ham tark etmaydi. Insoniyatni birlikka, muhabbatga chorlagan mavlono Jaloliddin Rumiyning “Bizni oriflar ko‘ngillaridan izlangiz” degan o‘giti biz uchun faqatgina falsafiy xitob emas, balki xalqlarimizning ma’naviy tutashuv nuqtasi ekanini safarimizning har daqiqasi va soniyasida anglab bordik. Madaniyatshunos va san’atshunos olimlar tomonidan dunyoning har bir go‘shasida ko‘ngil ziynati sanalmish ijodga berilgan bahoning naqadar totimli ekani va bu boradagi faylasufona qarashlar tafakkurimizni charxladi. San’at jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining bebaho kashfiyotidir. Har bir xalqning san’ati shu millatni dunyoga tanitadi, jahon sahnalarida shu xalqning nomidan so‘z aytishga sharoit yaratadi. Zero, san’at tarjima talab qilmaydi. Istanbul madaniyat universiteti rektori, professor Gulfetdin Chelek hamda taniqli adabiyotshunos olim Ahmad Kochakning “Milliy qadriyatlarimiz boshida ma’naviyat turadi, bu tushunchada xalqimizning eng yuksak qadriyatlari, xususan, halollik, to‘g‘rilik, vatanparvarlik, yurtga muhabbat kabi fazilatlar mujassam. Ikki mamlakat olimlari ma’naviyat bilan bog‘liq tizimli tadqiqotlar olib borishsa va mana shunday hikmatli ilmiy muloqotlarning xulosalarini hayotga tatbiq etishsa, jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga katta ta’sir ko‘rsatish mumkin. Albatta, taklifu xulosalarning aniq va manzilli bo‘lishi katta e’tibor talab etadi” degan xulosalari ham universitet bilan “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati o‘rtasida qo‘shma memorandum tuzilishiga asos bo‘ldi.

Anjumanda faylasuf olim Ilhom Suvonov mazmunli ma’ruza qilib, ta’limni tarbiya bilan uyg‘unlikda olib borish, ta’lim xalqlarni o‘zaro bilimiga sherik qilishi, ma’rifat esa bir-birining taqdiriga befarq bo‘lmaslikka o‘rgatishi, bilim inson imkoniyatlarini kengaytirsa, ma’naviy mas’uliyat shu imkoniyatlarni ezgu maqsadga yo‘naltirishga yordam berishi, shu bois, ta’lim hamkorligini insonning ilmi, dunyoqarashi va jamiyatga munosabati bilan bog‘liq holda baholash muhimligi borasidagi mulohazalari bilan o‘rtoqlashdi.

Tadbir davomida turk talabalarining xonishlariga jo‘r bo‘lib, turkcha qo‘shiqlarni xirgoyi qilamiz. “Nihol” mukofoti sovrindori Adolat Ismoilova jonli ovozda ijro etgan “Mustahzod” ashulasi suhbatlarimizga ziynat beradi, beixtiyor turk qardoshlarimiz ham kuy-qo‘shiqlarimizga qo‘shiladi.

Mashhur turk ijodkori, taniqli prodyuser va ssenariy muallifi Mahmud Bo‘zdog‘ hamda “Bo‘zdog‘-film” ijodkorlarining turk va o‘zbek kino san’ati namoyandalari bilan hamkorligida yaratilgan, buyuk sarkarda va so‘nggi xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi hayoti va uning mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi kurashiga bag‘ishlangan “Mendirman Jaloliddin” serialining jahon kino san’ati durdonasi sifatida namoyish etilishi ham ikki xalq san’atining muazzam ko‘rinishi ekani e’tirof etildi. Qadimiy va navqiron Xiva shahrimizning “Turkiy dunyo madaniyati poytaxti” deb e’lon qilingani esa navbatdagi suhbatimizga mavzu bo‘ladi.

Oriflarning teran hikmati, olimlarning fidokorona mehnati va komil ta’lim-tarbiya tizimi kelgusida ikki buyuk xalqning bag‘ridan yana yangi-yangi Alisher Navoiylar, mavlono Rumiylar, Mirzo Ulug‘beklar, Ibn Sinolar va Yunus Emrolarni yetishtirishiga hamda ularni butun dunyoga tanitishiga ishonchimiz katta. Zero, bugungi kunda berilgan sog‘lom ta’lim va ilg‘or tarbiya ertangi kunning buyuk kashfiyotlari, ma’naviy yuksalishlari va sivilizatsiyalararo muloqoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Insonlarni chegaralar ajratib turadi, san’at va adabiyot esa birlashtiradi. Ilmu fan olimlarimizni ma’rifiy va ilmiy muloqotlarga chorlaydi, bu muloqotlardagi ilmiy natijalar esa har ikki xalqning tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ziyolilar birlashsa, ko‘ngillar yaqin bo‘lsa, yo‘llar qisqaradi. Iste’dod egalarining oydin safarlardagi yorqin faoliyatlari madaniyat, ma’rifat va san’atning oltin zanjirlari bo‘lib ellarni yaqinlashtiradi, hamjihatlik va hamkorlik esa vatan ravnaqiga xizmat qiladi!

Shu sharafli vazifaga xizmat qilmoq hayotimizning mazmuni bo‘lmog‘i kerak!

Insonlarni chegaralar ajratib turadi, san’at va adabiyot esa birlashtiradi. Ilmu fan olimlarimizni ma’rifiy va ilmiy muloqotlarga chorlaydi, bu muloqotlardagi ilmiy natijalar esa har ikki xalqning tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.